FVV
Vaziyat

XAVF-XATAR MAYDONIDA QALQONMIZ XALQ YONIDA

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

2026-YIL 6-AVGUST № 32 (1077)

QUTQARUVCHI – MUSTAHKAM QALQON!



SO‘ZIMIZ AVVALIDA SHUNI AYTMOQCHIMIZKI, MILLATIMIZ QADRIYATLARI, MA’NAVIYATI, URF-ODATLARI, AN’ANALARI, TARIXI VA TA’BIR JOIZ BO‘LSA, O‘ZLIGI BIZGA NASL-NASABINING TAYINI BO‘LMAGAN KIMSALARDAN SOVG‘A QILINGAN VA O‘Z-O‘ZIDAN PAYDO BO‘LIB QOLGAN MEROS EMAS. MAZKUR BEBAHO BOYLIKKA ERISHISH, UNI ASRAB-AVAYLAB AVLODDAN AVLODGA YETKAZISH MAQSADIDA XALQIMIZ TOMONIDAN OZMUNCHA ISHLAR QILINMAGAN, OTA-BOBOLARIMIZ BU YO‘LDA O‘Z JONLARINI BEJIZ FIDO QILISHMAGAN. SHUNDAY EKAN, USHBU MEROSNI BIZ HAM O‘Z NAVBATIDA, SAQLASHIMIZ, YANADA BOYITIB, SAYQALLASHTIRIB, BEKAM-U KO‘ST EGASIGA, YA’NI BIZDAN KEYINGI AVLODGA YETKAZISHIMIZ KERAK. AYNI MANA SHUNDAY QALTIS SHAROITDA MILLIY KONTENTNI SHAKLLANTIRISH, UNI DOIMIY RAVISHDA RIVOJLANTIRIB, MUSTAHKAMLAB BORISH MASALASI DOLZARBDIR.



MILLIY KONTENT masalasi...



Tunov kuni oqshom ishdan kelsam, otam ma'yus tortib o‘tiribdi. Sababi bilan qiziqdim.

– Falonchi olamdan o‘tib qolibdi, – dedi otam ancha taniqli xonandaning ismini aytib. Yuragim “shuv” etdi. Bu san'atkorning qo‘shiqlarini oilamiz bilan sevib tinglaymiz.

– Kim aytdi?

– Ana, telefonda keldi.

Doim shu. Kunda-kunora “telefonda keldi” degan xabarlardan yurak bezillab qolgan: yo kimdir vafot etgan, yo qamalgan bo‘ladi. Yana kimdir avariyaga uchragani, komaga tushib qolgani kabi uydirmalar bezbetlarcha tarqatiladi. Eng dahshatlisi, uni oddiy, sodda iste'molchi haqiqat deb qabul qiladi. Yotig‘i bilan navbatdagi “tushuntirish ishlari”ni olib bordim.

– Bunday axborotni tarqatib, “suyunchi” oladigan kanallar hozir ko‘payib ketgan. Sizga taqdim etilayotgan xabarlarning 90 foiziga ham ishonmang. Falonchi tirik, hali ko‘p yashaydi. Farosatsiz-u savodsizlar sizzu bizni aldayveradi. Noto‘g‘ri bilan xolis va haqqoniy axborotni ajratib olishni, ishonchsiz manbalarni e'tiborsiz qoldirishni bilib olishimiz kerak.

Shu mazmunda gapirdim-u, o‘ylanib qoldim. Xavotirga soladigani, yaqin-yaqingacha asosan maishiy ma'lumotlar sizdirilar va ular falonchi mashhur san'atkor olamdan o‘tdi, sudlandi, qamaldi, avtohalokatga uchradi kabi uydirmalar shaklida bo‘lar edi. Endi esa g‘araz maqsad egalarining “ishtahasi ochilib ketdi” shekilli, mavzularni ijtimoiy, iqtisodiy va hatto siyosiy makonga daxl qilgan holda taqdim qilishga urinishlar boshlandi.

Hozirgi kunda ilg‘or texnologiyalar qandaydir 10–15 yil avval xayolimizga ham kelmagan tushuncha va hodisalarni hayotimizga olib kirdi. Axborot sohasida dezinformasiya, faktcheking, feyk va boshqa o‘nlab shu kabi iboralar lug‘atimizga mustahkam o‘rnashdi. Oqim shu darajada ko‘pki, uni sarasini sarakka, puchagini puchakka ajratib olish tobora murakkablashib bormoqda. Shunday paytda ziyoli qatlam bong urayotganidek, milliy kontentimizga e'tiborsiz bo‘lsak, milliy axborot makonimizga xorijiy OAVlar va ulardagi axborotlarning kirib kelishiga yanada kengroq imkoniyat yaratib bergan bo‘lamiz.

Milliy axborot makonimiz chetdan kirib kelgan axborot bilan to‘lib-toshar ekan, bu holat milliy kontentni rivojlanishini to‘xtab qolishiga olib keladi, natijada milliy kontentni boy berib qo‘yishimiz ham mumkin. Milliy kontentsiz bora-bora milliy o‘zligimizni ham yo‘qotib boramiz. Ayniqsa, jamoat transportidan ko‘p foydalanadiganlar kuzatgan chiqar: deyarli 99 foiz yo‘lovchi qo‘lidagi zamonaviy telefonga asir bo‘lib qolgan. Xayol-u shuuri bilan shu darajada qo‘lidagi matohga berilib ketganidan, o‘ziga kerak bekatda tusholmay boshqa bekatga o‘tib ketganlar qancha.

Ular nima ko‘ryapti, nima o‘qiyapti? Bo‘lar-bo‘lmas axborotni, videolavhalarni kimlar bilan va nima maqsadda bo‘lishyapti? Betayin, noxolis axborot va xabarlar manbasi bilan qiziqyaptimi? Nima uchun mavjud kontentlar orasida milliylikni tarannum etuvchilari barmoq bilan sanarli? Nega aksariyat mediamahsulotning sifati, dolzarbligi, mazmun-mohiyati va xolisligi abgor? Afsuski, bu kabi savollarga javobimiz yo‘q, bo‘lsa ham ular bizni xotirjam qiladigan darajada emas.

Yana savol ketidan savollar tug‘ilaveradi. Nahotki, ozgina izlanib, sifatli, dolzarb va jozibador kontent yaratish shunchalik qiyinmi? Yo‘q, bu murakkab emas. Bu ishni amalga oshirish uchun, tan olaylik, bizda barcha sharoit va imkoniyat bor.

Har bir xabarni tarqatishda uning faqat bir tomonini ko‘rmasdan, ertaga olib kelishi ehtimoli bo‘lgan oqibatini ham yaxshilab o‘ylab ko‘rish lozim. Negaki, bu insonlar orasida tagi puch, uydirma gaplar tarqalishiga, nizolar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Noto‘g‘ri axborot tarqatish dinimiz hukmi bo‘yicha ham og‘ir gunoh, dunyoviy davlatlarda ham buning uchun javobgarlik qonunan belgilab qo‘yilgan. Zero, u voqea hodisalar rivojiga, inson taqdiriga ta'sir etishi mumkin. Ayni paytda mamlakatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, yangilanishlar nafaqat yurtimiz odamlarini, balki uzoq-yaqindagi barcha do‘st-u yorlarimizni hayratga solmoqda. Bu hayrat ichida olib borilayotgan islohotlarga xayrixohlik, qo‘llab-quvvatlash, har doim birga bo‘lish kabi ezgu niyatlarning mujassamligi shundoq bilinib turibdi.

Keyingi yillarda respublikamiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, ichki va tashqi siyosatimiz yo‘lida boshlangan sa’y-harakatlar Markaziy Osiyo geosiyosiy holatini ham o‘zgartirib yubordi. Ayniqsa, qo‘shnilar bilan iqtisodiy, savdo-sotiq, ilmiy-ma’rifiy sohalarga qaratilgan teng va ochiq hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi ko‘ngildagi armonlarni aritdi.

Afsuski, bu o‘zgarishlarni ko‘rolmaydigan, hasadli nigoh bilan boqib turgan kuchlar hali ham yo‘q emas. Noxolis xabarlarni e'lon qilayotgan xorijdagi “do‘stlarimiz”ni chorasiz qoldirishning yo‘llaridan biri ularning “zahmatli mehnatlari”ni o‘zimizning “uz” domenidagi xolislik orqali yo‘qqa chiqarishdir. Agar barcha OAV amaldagi qonunchilik va davlatimiz rahbarining kuyunchaklik bilan qo‘yayotgan talablaridan kelib chiqib faoliyat yuritsa, hech qachon tashqi xabarlar bizning axborot makonimizga tahdid sola olmaydi.

Kelib chiqish ildizi xorijda bo‘lgan manbalar mamlakatimiz obro‘si, nufuziga putur yetkazishga, odamlar tafakkurini izdan chiqarishga qaratilgan axborot xurujlarini avj oldirish bilan ovora. Bugun urushning ana shu shamoyili eng katta tahdidlardan biriga aylangan. Globallashuv butun dunyoga shiddat bilan o‘z hukmini o‘tkazishda davom etayotgan bir paytda fuqarolarimizni, ayniqsa yosh avlodni buzg‘unchi g‘oyalar ta'siridan asrab-avaylash kun tartibidan joy olgan. Bunday sharoitda tarbiya bobida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar ruhi o‘z so‘zini aytishi, axborot maydonida milliy kontent yaratish vazifasi muhimligi yetakchi pozitsiyaga chiqishi lozim.

2024-yilning 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida Prezidentimiz ham bu masalaga alohida urg‘u berib, jurnalistlarni mamlakat axborot makonida milliy kontent yaratishga chaqirib, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho berib, xalqimizni turli axborot xurujlaridan saqlash muhimligini ta’kidlagan edi.

– Kontent avvalambor undan foydalanuvchi auditoriya uchun ishlab chiqilishi zarurligini tushunish va anglash lozim, – deydi filologiya fanlari doktori Beruniy Alimov. – Mahsulot foydalanuvchilarining ehtiyojlarini bilish va e’tiborga olish muhim hisoblanadi. Foydalanuvchi o‘z milliy resurslaridan ehtiyojini qondira olmas ekan, milliy kontentdan o‘ziga qiziq va kerak bo‘lgan axborotlarni topa olmas ekan, u bu narsalarni xorijiy resurslardan qidirishi tabiiy holat. O‘z o‘rnida milliy foydlanuvchilarimiz, ayniqsa yoshlar, xorijiy resurslardagi salbiy xarakterdagi ma’lumotlardan ozuqalangandan so‘ng, ushbu axborotlar ularning dunyoqarashiga o‘zining ta’sirini o‘tkaza boshlaydi. Natijada, kelajagimiz deb atalmish yoshlarning tarbiyasi buzilishi, ota-onasi asrab-avaylab katta qilgan farzandiga bo‘lgan orzu umidlari puchga chiqishi hech gap emas. Bunday halokatli vaziyatlarning oldini olish esa barchamizning vazifamiz.

Xo‘sh, media makonda milliy kontent yaratish, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho berish nechog‘lik uddalanishi mumkin bo‘lgan vazifa? Yuqorida bugungi dunyo kundan-kunga kengayib borayotgan olamshumul o‘zgarishlar davrida yashayotgani haqida gapirdik. Mutaxassislar fikricha, bu o‘tgan asrdagi ilmiy-texnik yuksalishning natijasidir. Iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda erishilgan va globallashuv nomi ostida tanilgan yutuqlar aynan shu ilmiy-texnik yuksalish bilan bog‘liq. Biroq, hayotda har bir narsaning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor. Globallashuv ham bundan mustasno emas.

Ayni maqolamiz yakunidagi xulosamiz shuki, o‘zbek xalqidagi kabi boy madaniy meros bilan hamma ham faxrlana olmaydi. Bunday madaniyat, ma'rifat hamda tarixga ega bo‘lgan millatga hech qaysi zararli ommaviy madaniyat putur yetkaza olmasligi kerak.

Nodir MAHMUDOV,
jurnalist

TEAM BUILDING – zamonaviy boshqaruvning strategik vositasi





Uzoq yillar davomida ish samaradorligi, avvalo, alohida bir mutaxassisning bilimi, tajribasi va shaxsiy salohiyati bilan baholanib keldi. “Kuchli rahbar”, “eng yaxshi mutaxassis”, “eng faol xodim” kabi tushunchalar individual yondashuvni ustuvor qadriyatga aylantirdi. Ammo XXI asrning ikkinchi o‘n yilligidan boshlab bu qarash keskin o‘zgara boshladi. Sun’iy intellekt, raqamli transformatsiya, gibrid mehnat shakllari va murakkablashayotgan loyihalar shuni ko‘rsatdiki, bugungi muammolarni endi bitta insonning o‘zi hal qila olmaydi. Eng yaxshi natijalar turli bilim va tajribaga ega insonlar bir maqsad yo‘lida uyg‘un ishlaganda yuzaga chiqmoqda.

Xo‘sh, Team building aslida nima? Nega u aynan bugungi davrda dolzarblashib bormoqda?

Bu o‘zgarishlar ilmiy tadqiqotlarda ham o‘z tasdig‘ini topmoqda. Gallup tomonidan 2024-yilda 347 ta tashkilot, 53 ta sanoat tarmog‘i va 90 mamlakatdagi 183 mingdan ortiq jamoa faoliyati tahlil qilingan yirik meta-tadqiqot xodimlarning jamoaga daxldorligi va hamkorligi yuqori bo‘lgan tashkilotlarda mehnat unumdorligi, xizmat sifati hamda biznes natijalari sezilarli darajada yaxshiroq ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqotchilar bugungi raqobat sharoitida alohida iste’dod emas, balki jamoaning bir butun mexanizm sifatida ishlashi ustunlik berayotganini ta’kidlaydi. Shu sababli ham so‘nggi yillarda dunyo kompaniyalari va davlat tashkilotlari team building (inglizchada “team” – jamoa, “building” – qurish) – jamoani shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan maxsus dasturlarga tobora ko‘proq e’tibor qaratmoqda.

Aslida teambuilding yangi tushuncha emas. Uning ilmiy ildizlari XX asrning 1920–1930-yillariga borib taqaladi. AQSHda Elton Mayo boshchiligida o‘tkazilgan mashhur Hortorn(Hawthorne) tadqiqotlari mehnat unumdorligi faqat ish haqi yoki texnik sharoitlarga emas, balki xodimlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, o‘zaro ishonch va jamoaviy muhitga ham bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Teambuildingning ilmiy rivojlanishida 1965-yil alohida o‘rin tutadi. Amerikalik psixolog Bryus Tukman jamoalarning rivojlanish bosqichlarini Forming + Storming + Norming + Performing (shakllanish + ziddiyat + me’yorlashtirish + yuqori samaradorlik) modelini taklif qildi. Oradan oltmish yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, ushbu model bugungi kunda ham menejment, liderlik va tashkiliy psixologiya bo‘yicha dunyoning ko‘plab universitetlarida o‘qitiladi hamda amaliyotda keng qo‘llaniladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda team buildingga bo‘lgan qiziqish keskin oshdi. Bunga bir nechta omillar sabab bo‘ldi.

Birinchidan, zamonaviy muammolar tobora murakkablashmoqda. Bitta mutaxassis barcha vazifani mustaqil bajara olmaydi. Shuning uchun tashkilotlar turli bilim va tajribaga ega xodimlardan iborat samarali jamoalarni shakllantirishga intilmoqda.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar va masofaviy ishlash shaklining kengayishi xodimlar o‘rtasidagi jonli muloqotni kamaytirdi. Natijada tashkilotlar jamoaviy ishonch va hamkorlikni saqlab qolish uchun teambuilding usullariga tobora ko‘proq murojaat qilmoqda.

Uchinchidan, xodim o‘z fikrini erkin ayta oladigan, xatodan qo‘rqmaydigan va hamkasblarining qo‘llab-quvvatlashini his qiladigan jamoalarda innovatsion g‘oyalar ko‘proq yuzaga kelishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

To‘rtinchidan, xavf darajasi yuqori bo‘lgan sohalarda teambuilding endi tanlov emas, balki zaruratga aylandi. Harbiy tuzilmalar, aviatsiya, tibbiyot va favqulodda vaziyatlar xizmatlarida inson hayoti ko‘pincha jamoaning o‘zaro uyg‘un harakatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli xalqaro tajribada teambuilding xodimlarni tayyorlash tizimining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

AN’ANAVIY PSIXOLOGIK TRENINGLARDAN FARQI

Teambuildingning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, mashg‘ulot davomida tashkilotdagi odatiy ierarxiya ma’lum darajada ikkinchi planga o‘tadi. Rahbar ham, yangi ish boshlagan xodim ham bir xil topshiriqni bajaruvchi jamoa a'zosi sifatida ishtirok etadi. Bu esa xizmat faoliyatida saqlanadigan rasmiy masofa va tortinchoqlikni kamaytirib, odatda aytilmay qoladigan fikrlarning erkin bildirilishiga sharoit yaratadi.

Aytish joziki, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida jamoaviy birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan ishlar yangilik emas. Yillar davomida xodimlarning ma'naviy-ruhiy muhitini yaxshilash, sog‘lom raqobatni rivojlantirish va korporativ madaniyatni mustahkamlash maqsadida sport musobaqalari, “Zakovat” intellektual o'yinlari, “Ajdodlar izidan” loyihalari, “Quvnoqlar va zukkolar” kabi ijodiy tanlovlar muntazam tashkil etib kelinadi.

Biroq teambuilding ushbu tadbirlarning o‘rnini bosuvchi emas, balki boshqa vazifani bajaruvchi yondashuvdir. Masalan, “Zakovat” bahsida jamoaning g'alabasini bir yoki ikki nafar kuchli bilimli ishtirokchi hal qilib qo'yishi mumkin. Ayrim a'zolar esa deyarli faol ishtirok etmasdan ham g'olib jamoa safida bo'ladi. Teambuildingdagi “To‘g‘ri yo‘lni top” kabi hamkorlikka asoslangan mashqlarda esa topshiriqning muvaffaqiyati har bir ishtirokchining o'z vazifasini bajarishi, boshqalarni tinglashi va jamoaning umumiy harakatiga hissa qo'shishiga bog'liq. Bitta bo'g'in sust ishlasa, butun jarayon izdan chiqishi mumkin. Aynan shunday vaziyatlarda xodimlarning kundalik xizmatda ko'zga tashlanmaydigan jihatlari namoyon bo‘ladi. Kimdir tashabbus ko‘rsatadi, yana biri jamoani birlashtiradi, boshqasi esa vaziyatni xolis tahlil qilib, eng maqbul yechimni taklif etadi.

TEAMBUILDING NIMA UCHUN FOYDALI?

Har qanday tashkilotda lavozim yo'riqnomalari, xizmat intizomi va aniq vakolatlar ishning samarali tashkil etilishi uchun zarur. Biroq inson uzoq vaqt faqat shu qolipda faoliyat yuritsa, uning ijodiy fikrlashi, tashabbuskorligi va ichki salohiyatining ayrim jihatlari namoyon bo‘lmay qolishi mumkin. Teambuilding ana shu ko‘rinmayotgan imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Bunday mashg‘ulotlarda xodim o‘zining odatiy xizmat rolidan vaqtincha chiqib, muammoni boshqa nuqtayi nazardan ko‘rishga harakat qiladi. Natijada unda ijodiy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, hamkorini tinglash, o‘z fikrini asoslab bera olish va jamoa bilan murosa topish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi. Eng muhimi, inson o‘zining kuchli va rivojlantirishi zarur bo'lgan jihatlarini yaxshiroq anglay boshlaydi.

Teambuilding hamkasblarga bo‘lgan munosabatni ham o‘zgartiradi. Kundalik xizmatda faqat egallab turgan lavozimi orqali baholanadigan inson mashg‘ulot davomida mutlaqo boshqa qirralarini namoyon etishi mumkin. Kechagina vazifalarni ijro etuvchi xodim sifatida ko‘rilgan hamkasb kutilmagan yechim taklif qilishi mumkin. Bu esa bir-biriga nisbatan hurmat va ishonchni mustahkamlaydi. Bunday o‘zgarishlar esa bevosita ish jarayoniga ta’sir qiladi. Natijada ishdagi ruhiy bosim faqat bitta xodim yoki rahbar zimmasida qolmaydi, balki butun jamoa tomonidan birgalikda yengiladi.

Ayniqsa, inson hayoti va xavfsizligi uchun mas’ul bo‘lgan Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida bu jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki favqulodda vaziyatda muvaffaqiyatni faqat bitta tajribali mutaxassis emas, balki bir maqsad yo‘lida uyg‘un harakat qiladigan jamoa ta’minlaydi. Teambuilding esa ana shu uyg‘unlikni buyruq yoki nazorat orqali emas, balki o‘zaro ishonch, ochiq muloqot va umumiy maqsadni anglash orqali shakllantiradi.

Shu bois teambuilding jamoani “bir joyda ishlaydigan xodimlar guruhi”dan “bir maqsad sari harakat qiladigan jamoa”ga aylantiradigan zamonaviy boshqaruv yondashuvi sifatida baholash to‘g‘ri bo‘ladi.

Sabohat UZOQOVA,
jurnalist

“Butun borliqni to‘ldirib oppoq qor yog‘moqda. Muzlab qolgan temir yo‘l relslarining qisirlagan ovozi odam bolasi yuragidagi vahimani yanada kuchaytiradi. Etni junjiktirib, beixtiyor seskantiradi. Hushtak chalayotgan izg‘irin ajalning xabarini olib kelayotgani rost edi. Oxirgi vagonda g‘am daryosiga botgan, og‘riq zo‘rligidan aqldan ozib borayotgan homilador ayoldan hech kim hol so‘ramaydi. Chunki bu ayol hur fikrli, ziyoli insonning turmush o‘rtog‘i bo‘lganligi, millati ravnaqini o‘ylaganligi, “jadid” erini sotmaganligi bois “xalq dushmani”ga aylangan. U junjikib eski ilma-teshik adyolga o‘ralar ekan, vujudidan joy olgan mitti jon bezovtalanayotganini his qildi. Simillab boshlangan og‘riq tobora kuchayib borardi. “Kim bor? Hoooy, kim bor? Yor-dam be-ring-lar, to‘l-g‘o-g‘im bosh-lan-gan-ga o‘x-shay-diii!– deydi bechora ayol ingrab... – Shu va-hi-ma-li, qo‘r-qinch-li dun-yoga oshiq-ma, bo-lam. Eh bo-la-ma, jo-nim bo-lama...”



JADIDLAR JASORATI – IBRAT MAKTABI

Vagonlarga mo‘ralab yurgan rus askarlardan biri ayolning holini sezdi, lekin uning ko‘zlarida rahm-shafqat uchquni emas, sovuq bir niyat yiltilladi. Ayolning jon talvasada ingrashini, chaqaloqning tug‘ilish jarayonini beparvolik bilan kuzatib turdi. Va nihoyat... sho‘rlik ona bolasini bag‘riga bosar-bosmas, yugurib keldi-da, chaqaloqni ikki oyog‘idan ushlab sovuq o‘rmonzor bag‘riga uloqtirib yubordi. Ayol bu jaholatni, zulmni ko‘tarolmadi. Vagonning temir yo‘laklariga behush yiqildi... Osmonni to‘ldirib uchayotgan qarg‘alar go‘yoki “Dod! Bu zulmdan, bu zamondan, achchiq qismatdan dod!” deya qag‘illar edi...

Bundan ikki yil oldin ushbu voqeani so‘zlab berarkan suhbatdoshim – O‘zbekiston xalq shoiri Sharifa Salimova ko‘zlarida yosh bilan ancha paytgacha sukut saqlab qolgan edi. O‘shanda uning bu sukuti cheksiz faryodga, iztirobga, alamga to‘la ekanini his qilganim sayin tomog‘imga nimadir tiqilgan, bazo‘r bo‘g‘zimda tutib turganim alamli yig‘i ko‘ksimni kuydirib, mijjalarimdan oqib tushgan edi.

“Qabohat saltanati” ichra qon yig‘ladim...

2024- yilning 19- iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori e'lon qilindi. Ushbu hujjatda 1937–1953-yillarda mustabid tuzum tomonidan 100 mingdan ziyod xalqimiz vakillari qatag‘on siyosatining qurboni bo‘lgani, bu yurtdoshlarimizning 13 ming nafari otib tashlangani, minglab kishilar nohaq quloq qilingani, surgunlarga jo‘natilgani, ular orasida atoqli davlat va siyosat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, diniy ulamolar, harbiy soha va sud-huquq tizimi xodimlari, ishchi-dehqonlar va ularning oila a'zolari bo‘lganligi qayd etilgan.

– Mazkur tarixiy hujjatni o‘qiyapman-u qariyb o‘n yildan beri olib borayotgan izlanishlarim, surishtiruvlarim, mashaqqatlarim ko‘z o‘ngimda jonlanib mening bu tadorigim, qalbimdagi yaralarim bejiz emasligini angladim, – deydi Sharifa Salimova. – Boshlab qo‘ygan she'riy romanimni “Qabohat saltanati yoxud qor qo‘ynida lolalar” deb nomlaganman. Mazkur asarda XX asrning 20-30-yillarida siyosiy zulmlar qurboni bo‘lgan bir qancha o‘zbek xotin-qizlarining qismatlari va insoniy siymolarini yoritishni o‘z oldimga adabiy-badiiy maqsad qilib qo‘ygan edim. Asar uch qism, o‘n uch fasldan iborat. Fasllarning har birida siyosiy mustabid zulm qurbonlari – Xayriniso Majidxonova, Maryam Sultonmurodova, Sobira Holdorova, Shodixon Tojiyeva singari sar osmoning chin yulduzlari bo‘lmish jadid ayollarning taqdirlari – boshlariga tushgan mislsiz azob, ko‘rguliklari yoritilgan.

1922-yilning kuz faslida Germaniyaga tahsil olish uchun Turkiston Respublikasi “Ko‘mak” jamiyati tomonidan yo‘llangan 16 nafar talaba orasida Xayriniso Majidxonova alohida ajralib turardi.

Qizlar uchun oddiy maktabga qatnashning o‘zi jiddiy qarshilikka uchrab turgan bir vaqtda ularning tahsil uchun uzoq xorijga yo‘l olishi ziyolilar tomonidan ulkan jasorat sifatida baholanadi. Hatto, yosh shoir Botu Xayrinisoning Germaniyaga ketayotgani munosabati bilan “Ehtiyot bo‘l, go‘zal qush” deya she'r bitadi.

– Bolaligimda onam rahmatli xolamni eslab juda ko‘p yig‘laganlarini eslayman, – deydi Xayriniso Majidxonovaning jiyani 96 yoshli Nabiraxon aya. – Onamning aytishicha, xolam Miroboddagi yangi maktabda o‘qib, rus va nemis tillarini astoydil o‘rgangan. Uning dunyoqarashi shakllanishida Turkiston jadid matbuotining, shuningdek, bu vaqtda birinchi o‘zbek xotin-qizlar bilim yurtida o‘qiyotgan opasi– xolam Oyposhshaxonning ham ta'siri katta bo‘lgan. O‘zbek shoirasi Sharifa Salimova xolam haqida asar yozayotganini eshitib juda quvondim. Xolam Germaniyadan qaytib kelgach, tibbiyotdagi yangiliklar to‘g‘risida ilmiy izlanishlar olib borib, doktorlik ishini ham nemis tilida yoqlagan ekan. Lekin uning xorijdagi izlanishlari aks etgan barcha qog‘ozlar va qimmatbaho kitoblar tag-tugi bilan yoqib yuborilgan. O‘sha kunning achchiq tutuni haligacha dimog‘imdan ketmaydi, yuragimni pora-pora qiladi, deb nola qilardi onam. Jadid bobolarimiz va momolarimizni qadrlayotgan, ularning siymolari oramizga qaytishini astoydil istab ko‘plab qarorlarni imzolayotgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevni har kuni duo qilaman. Shu yorug‘ kunlarga yetkazganiga, bu yaxshiliklarni ko‘zlarim bilan ko‘rganimga shukr!

1922-yili “Turkiston” gazetasida chop etilgan Xayriniso Majidxonovaning maqolasidan endigina 17 yoshni qarshilagan qizning Vatan istiqboli haqidagi orzu-istaklari, takliflari va loyihalari o‘rin olgan. Maqolani o‘qir ekansiz, eng avvalo, o‘tgan asrning boshida yashagan bir o‘zbek qizining dunyoqarashi naqadar kengligi, Vatan taqdiri oldida o‘zini qanchalik daxldor sezishi sizni hayratga soladi: “Turkistonning dunyo savdo maydonida tutqon vaziyati XVII asrdan beri tuban darajada qolib keldi... XX asrning boshida ham qo‘shnimiz bo‘lgan Eron xalqi siyosiy fikrlar bilan sug‘orilib, o‘z elida sanoat turg‘izish va chetlarning ta'siridan qutulish yo‘lida qon to‘kkan muddatda bizning Turkiston tinch uxlamoqda edi... Faqat Russiyadan temir yo‘l kelib, savdo maydoni kengaydi... Bundan ochiq anglashiladirki, bizning moziyimizni porloq qilg‘on – elimizdan o‘tgan karvon yo‘li bo‘lsa, istiqbolimizni porloq qilg‘uchi, elimizni jahon savdo maydonig‘a tutoshdirg‘uvchi ulug‘ temir yo‘ldir. Ular bizning savdomizni kengaytur, bizga boyliq va obodliq berur va o‘zimizga katta sanoat turg‘azishga imkon ochar”.

– Xayriniso Majidxonova 1928-yili yurtimizga qaytib, tibbiyot sohasida o‘rgangan barcha yangiliklarni hayotga joriy qilishga bor kuch-quvvati bilan kirishadi, – deydi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi mas'ul xodimi Bahrom Irzayev. – Hatto olis qishloqlardagi bolalar salomatligini o‘ylab tashkil etgan bolalar ko‘rigi ko‘plab yurtdoshlarimiz e'tirofiga sazovor bo‘lgan. Biroq buyuk maqsadlar yo‘lidan borayotgan Xayriniso Majidxonova navqiron 32 yoshida totalitar tuzumning qonli qatag‘oni girdobiga tortildi.

1937-yilning 13-sentyabrida “1922-1928-yillarda Germaniyada o‘qigan va 1928-yil SSSR hududiga josus sifatida qaytgan”, degan soxta ayblov bilan qamoqqa olingan. 1938-yilning 9-oktyabrida o‘tkazilgan mash'um “Uchlik” sudi qo‘yilgan ayblarning hech biri isbotlanmaganiga qaramay, unga o‘lim jazosini belgiladi. O‘zbek jadid ayollari haqidagi izlanishlarni yanada kuchaytirishimiz zarur. Chunki jadid bobolarimiz haqida tadqiqotchilarimiz va ijodkorlarimiz ko‘p yozishadi, biroq jadid momolarimiz haqida yozilganlari juda kam.

Suhbatdoshimiz ming og‘riq bilan so‘zlab o‘tganidek, qatag‘on yillarida ajdodlarimizning uvol ketgan umrlari, orzulari, loyihalari haqida o‘ylaganda har qanday insonning yuragi tirnaladi. Ma'rifatparvar bobolarimiz va momolarimiz haqida yozilgan badiiy va hujjatli asarlarni o‘qigan bugungi kun yoshlari ular kabi g‘ayrat va shijoatga to‘lishni, “Biz Yevropadan ham ilgarilab ketamiz!” deya dunyo ayvoniga intilib o‘z millati taraqqiyotini o‘ylagan bobolari va momolari kabi yonib yashashni, yuksak orzular ishtiyoqida qadam tashlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysalar, ajab emas. Ayni maqolani yozishdan ham maqsadimiz, umidimiz, yurak nolalarimiz shudir: O‘zbekiston deb atalgan betakror va jannatmakon yurtga munosib farzand bo‘lish istagi, qayg‘usi va sharafidir!

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Hech bir inson olamda bir o‘zi uchun yashamaydi. Uning bor hayoti, intilishlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari – barisi boshqalarga, butun jamiyatga bog‘liq bo‘ladi. Kimdir biz uchun taom tayyorlab, kimdir non yopganida kimdir hayotimiz xavfsizligini ta’minlash yo‘lida xizmat qiladi.



INSONLAR HAYOTINI ASRASH – MUQADDAS BURCH





Inson hayoti va xavfsizligini ta’minlash – yuksak ma’naviyat va fidoyilikni talab qiluvchi olijanob vazifadir. Mamlakatimizning Favqulodda vaziyatlar tizimida bu vazifani zimmasiga olgan fidoyilar juda ko‘p. Bu maydonda har bir soniya, har bir qaror insonlar taqdirini belgilaydi.

Sahifaning bu galgi qahramoni ana shunday sharafli va mas’uliyatli kasbni egallab, mardona xizmat qilayotgan professional mutaxassislardan biri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi FVB Favqulodda vaziyatlarda boshqarish markazi smena boshlig‘i, mayor Rustambek Seytirzayevdir. Bu qahramon haqida alohida g‘urur va havas bilan so‘zlasa arzigulik.

Rustam Seytirzayevning 15 yillik xizmat faoliyati zamirida murakkab amaliyotlar, qadamma-qadam orttirilgan tajriba va o‘z kasbiga bo‘lgan ulkan sadoqat, zamondosh-u zamindoshlarga nisbatan cheksiz insonparvarlik tuyg‘usi yotadi.

Qahramonimiz 1989-yil 25-iyulda Nukus shahrida tug‘ilgan. Umumta’lim maktabni tamomlagach, o‘z qiziqishlari ortidan Nukus sanoat kollejida tahsil oldi. Yoshligida dzyudo sport turi bilan shug‘ullangani unda jismoniy chidamlilik va og‘ir vaziyatlarda sovuqqonlikni saqlash ko‘nikmasini shakllantirdi.

Qahramonimizning hikoya qilishicha, u kollejda o‘qib yurgan kezlarida ro‘y bergan voqea kelajakdagi taqdirini belgilab bergan ekan. Qish kunlarining birida Rustambek bir manzildan ikkinchisiga yetib olish uchun yo‘lovchi avtobusga o‘tiradi. Odatdagi kun edi. Kutilmaganda avtobusda yong‘in kelib chiqadi. Qop-qora tutun va cheksiz sarosima ichida qolgan 17 yoshli Rustambek tezda es-hushini yig‘ib oladi, fuqarolarni xavfsiz hududga olib chiqishda faollik ko‘rsatadi va atrofda yog‘ib turgan qor yordamida olovni o‘chirishga ko‘maklashadi. O‘sha kuni ustidagi yangi kurtkasi va kiyimlari yong‘in oqibatida yaroqsiz holga kelgan bo‘lsa-da, bu voqea uning qutqaruvchilik kasbiga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirdi. Insonlar hayotini asrab qolish tuyg‘usi uning ko‘nglida shu sohaga nisbatan boshqacha qiziqish va katta qat’iyat uyg‘otgan edi.

Rustambek Seytirzayev 2009-2010-yillarda muddatli harbiy xizmatni sharaf bilan o‘tab qaytadi. So‘ng yong‘in xavfsizligi oliy texnika maktabiga (hozirgi FVV) akademiyasiga o‘qishga kiradi. 2015-yilda bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlab, Nukus shahar 1-qutqaruv qismiga ishga kiradi, smena boshlig‘i etib tayinlanadi. To‘rt yil davomida bevosita yong‘in va boshqa favqulodda vaziyatlarga boy xavfli hududlarda qutqaruvchilarga rahbarlik qiladi. 2019-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi FVB Favqulodda vaziyatlarda boshqarish markazi smena boshlig‘i lavozimiga tayinlanadi. Hozirga qadar shu lavozimda sadoqat bilan faoliyat olib bormoqda. 2022-yilda unga mayor darajasi berilgan.

Xizmat faoliyati davomida mayor Rustambek Seytirzayev 100 dan ortiq favqulodda vaziyatlar, yirik yong‘inlar va qutqaruv amaliyotlarida bevosita qatnashgan, favqulodda iroda va katta matonat ko‘rsatgan. Suhbatimiz davomida qahramonimiz insonlar hayotini asrab qolishga erishilgan amaliyotlardan bir nechtasini faxr bilan esga oldi. Uning ko‘zlarida yonib turgan cho‘g bizning ham ko‘nglimizga ko‘chdi.

“O‘shanda qismga tumandagi ko‘p qavatli uylardan birida yong‘in ro‘y bergani haqida xabari kelib tushadi. Hamma uylarni tutun qoplagan edi. U yerda yuqori qavatlarda odam bor-yo‘qligini surishtirdim. Maxsus apparatlarni olib shoshilinch ishga kirishdim va uchinchi qavatdagi yoshi katta er-xotinlarni qutqarib qoldim”.

Yana birida esa favqulodda vaziyatlar xodimi nafaqat tezkor bo‘lishi, balki psixologik ta’sir ko‘rsata olish sifatlariga ham ega bo‘lishi kerakligini amaliyotda sinagan ekan qahramonimiz.

2018-yil. Tungi soat uchda bo‘limga kelib tushgan birgina tashvishli xabar butun navbatchilik guruhini oyoqqa turg‘azdi. Nukus shahridagi sement zavodining baland binosi tepasida bir fuqaro o‘z joniga qasd qilishga urinayotgani ma’lum qilindi. Qutqaruvchilar voqea joyiga sanoqli daqiqalarda yetib borishdi. Yuqorida – balandlik va sovuq shamol, pastda esa har bir soniyasi inson hayotini hal qiladigan xatarli vaziyat. Mayor Seytirzayev va uning jamoasi uchun bu shunchaki navbatdagi topshiriq emas, balki hayoti benihoya qadrli bo‘lgan insonlar taqdirini saqlab qolish bo‘yicha ruhiy va kasbiy sinov edi. Qutqaruvchilar mutlaqo sovuqqonlik va o‘ta ehtiyotkorlik bilan harakat qilishdi. Ruhiy tushkunlikka tushib sarosimada qolgan inson bilan tundan to tonggacha, bir necha soat davomida ruhiy muloqot va juda og‘ir muzokara yuritib turdilar. Har bir aytilgan so‘z, har bir qadam puxta o‘ylangan edi. Nihoyat, tongga yaqin qutqaruvchilarning sabri, mahorati va samimiy so‘zlari o‘z natijasini berdi – fuqaro bu xatarli yo‘ldan qaytarildi va xavfsiz joyga olib tushildi.

“Qutqaruv xizmatiga kelmoqchi bo‘lgan har bir kishi, eng avvalo, o‘ziga bitta savol berishi kerak: “Insonlar hayotini saqlab qolish uchun o‘z xavfsizligingni xavf ostiga qo‘yishga tayyormisan?” Agar bu savolga ich-ichidan aniq va qat’iy, zarra ikkilanishsiz javob kelsa, demak, u bu tizimda ishlay oladi. Bu kasb sabr, chidam va yuqori mas’uliyatni talab qiladi”, deydi u.

Bugungi kunda oilada mehribon ota bo‘lgan Rustambek Seytirzayevning asosiy maqsadi – xizmat burchini halol ado etish va to‘planayotgan amaliy tajribani kelajakda o‘z farzandlariga va yosh xodimlarga o‘rgatishdan iborat.

Har bir tajribali mutaxassisning shakllanishi va muvaffaqiyati ortida ustozi ko‘rsatgan yo‘l, bergan qimmatli saboqlari yotadi. Mayor Rustambek Seytirzayev ham kasbiy mahorat va soha sirlarini egallashda ustozlarining o‘rni beqiyos bo‘lganini alohida ta’kidlaydi.

“Oliy dargohni tamomlab, ilk bor smena boshlig‘i sifatida xizmatni boshlaganimda, podpolkovnik Bahrom Yaxshiboyev menga sohaning nozik sirlarini, amaliyotdagi murakkab jihatlarni chin dildan o‘rgatgan. Shuningdek, podpolkovnik Shavkat Qodirovning ham boy tajribasi, harbiy intizomi va toblangan mahorati men uchun haqiqiy hayotiy maktab bo‘ldi”, – deydi u.

Ustozlarining o‘gitlari, har bir vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish borasidagi tavsiyalari yosh qutqaruvchiga keyingi murakkab amaliyotlarda kompas bo‘lib xizmat qildi. Bugun u o‘zi ham yosh xodimlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatar ekan, ulardan o‘rgangan mas’uliyat va kasbga sadoqat tamoyillariga tayanadi.

Tinchligimiz va xavfsizligimiz posbonlari bo‘lgan bunday matonatli insonlar bor ekan, jamiyat hayoti osuda bo‘ladi. Qolaversa, bunday shijoatli xodimlar shu sohaga kirib hali ikkilanib turgan yuzlab yoshlarni matonatli bo‘lishga chorlaydi.

Gulnora SHERMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri

“Jasorat va matonat”

Mahalla yoshlari o‘rtasida birdamlik, matonat, vatanparvarlik kabi jihatlarni shakllantirish maqsadida Navoiy viloyati FVBda “Jasorat va matonat” sport musobaqasi o‘tkazildi. Unda mazkur musobaqaning tuman va shahar bosqichlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan jamoalar faol ishtirok etishdi.



Yoshlarning jismoniy hamda favqulodda vaziyatlar bo‘yicha tayyorgarligini sinovdan o‘tkazgan o‘yin 4 ta shartdan iborat bo‘ldi.

Estafeta sharti boshlangan musobaqada jamoalar o‘zlarining tezlik, birdamlik hamda o‘t o‘chirish ko‘nikmalarini amalda namoyon etgan bo‘lsa, “Birinchi tez tibbiy yordam” sharti chinakam ma’noda yoshlarning favqulodda vaziyat yuzaga kelganda qay tarzda tibbiy yordam ko‘rsata olishini ko‘rsatib berdi.

Shundan so‘ng navbatdagi “Chodir tiklash” shartiga start berildi.

Bu shart ishtirokchilar uchun biroz qiyinchilik tug‘dirgan bo‘lsa-da, ammo, jamoalar unda munosib ishtirok etishdi.

Oxirgi va hal qiluvchi bosqich sharti – milliy xalq o‘yinlarimizdan biri bo‘lgan “Arqon tortish sharti” edi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra 3-o‘rin – Navoiy shahri hamda karmanalik yoshlarga nasib etdi. Konimexning tirishqoq yoshlari musobaqaning 2-o‘rinidan joy egallagan bo‘lsa, faxrli 1-o‘rin hamda Respublika bosqichiga yo‘llanmani qiziltepaliklar qo‘lga kiritdi. Endilikda ular musobaqaning avgustda o‘tkazilishi rejalashtirilgan Respublika bosqichida Navoiy viloyati sha’nini himoya qilishadi.

Aytish mumkin, mazkur musobaqa nafaqat yoshlarning favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgandagi ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazdi, balki ularning yangi do‘stlar orttirishi, jamoa bilan ishlash ko‘nikmasining yaxshilanishi hamda vatanparvarlik kabi ezgu xislatlarining kamol topishiga keng yo‘l ochdi.

Navoiy viloyati FVB
Axborot xizmati

Bellashuvning viloyat bosqichi o‘tkazildi

“Yangi O‘zbekistonni yoshlar quradi!” shiori ostida Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi uchun mahalla yoshlari o‘rtasida tashkil etilgan “Jasorat va matonat” sport musobaqalarining Sirdaryo viloyati bosqichi yuqori saviyada o‘tkazildi.



Mazkur musobaqa yoshlarning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish maqsadida tashkil etildi.

Musobaqa davomida viloyatning shahar va tumanlaridan tashrif buyurgan jamoalar turli sport va amaliy shartlar bo‘yicha o‘zaro kuch sinashdi. Ishtirokchilar jismoniy chiniqqanlik, epchillik, tezkor fikrlash, favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish hamda jamoaviy hamjihatlik borasidagi mahoratini namoyon etdi.

Qizg‘in va murosasiz kechgan bahslar yakunida hakamlar hay’ati tomonidan eng yuqori natijalarni qayd etgan jamoalar aniqlanib, g‘olib va sovrindorlar diplom hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Musobaqa yakunlariga ko‘ra, Sayxunobod tumani jamoasi faxrli birinchi o‘rinni qo‘lga kiritib, respublika bosqichida Sirdaryo viloyati sharafini himoya qilish huquqini qo‘lga kiritdi.

Davronbek SULAYMONOV,
Sirdaryo viloyati FVB Axborot xizmati boshlig‘i, kapitan
Rasulbek XUDOYBERGANOV,
Sirdaryo viloyati FVB bo‘lim boshlig‘i, katta leytenent

Yangi O‘zbekistonni yoshlar quradi

Namangan viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan mahalla yoshlari o‘rtasida “Jasorat va matonat” shiori ostida Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi musobaqasining viloyat bosqichi o‘tkazildi.



Musobaqadan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, tinchlik va do‘stlik ruhida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, qutqaruvchilik kasbiga qiziqishini oshirish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilishdan iboratdir.

Musobaqaning yakuniy natijalariga ko‘ra:

1-o‘rin – Pop tumani jamoasiga;

2-o‘rin – Chust tumani jamoasiga;

3-o‘rin esa Uchqo‘rg‘on tumani jamoasiga nasib etdi.

Shuningdek, musobaqa davomida turli nominatsiyalar bo‘yicha faol ishtirok etgan yoshlar ham munosib taqdirlandi.

Bahodir MAMADIYEV,
Namangan viloyati FVB boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik

G‘alabalar sari dadil odim





Atrofimizda shunday insonlar yashaydiki, ular qaysi sohada faoliyat yuritmasin, o‘zining fidoyiligi, izlanishdan to‘xtamasligi va yuksak marralarni zabt etishga bo‘lgan intilishi bilan boshqalarga ibrat bo‘la oladi. Bunday insonlarning hayot yo‘li bizga ko‘p saboq beradi: haqiqiy muvaffaqiyat tasodif emas, balki mashaqqatli mehnat, mustahkam iroda va Vatanga, ona xalqqa muhabbat mahsulidir. Ayniqsa, el osoyishtaligi, insonlar hayoti va mol-mulkini asrashdek sharafli kasbni tanlagan fidoyi xodimlarda bu fazilatlar yanada yorqin namoyon bo‘ladi.

Namangan viloyati Chust tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi katta inspektori, kapitan Jobirbek Olimjonov ana shunday fidoyi ofitserlardan biridir. U bugun xizmat faoliyati bilan sportdagi muvaffaqiyatlarini uyg‘unlashtirib, o‘zining intilishi, intizomi va qat’iyati bilan yoshlar uchun munosib namuna bo‘lib kelmoqda. Uning hayot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, oilaviy tarbiya, ustozlar sabog‘i, mashaqqatli mehnat va Vatanga sadoqat insonni qanday yuksak marralar sari yetaklashini yaqqol ko‘ramiz.

Jobirbek Olimjonov 1996-yil 8-dekabr kuni Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida tavallud topgan. U bolaligidanoq halollik, mehnatsevarlik, jasorat va vatanparvarlik qadriyatlari ustuvor bo‘lgan oilada ulg‘aydi. Ota-onasi farzandining komil inson bo‘lib voyaga yetishi uchun barcha sharoitni yaratishga intilishardi. Oiladagi samimiy muhit, kattalarga hurmat va mas’uliyat hissi uning xarakterini shakllantirishda muhim omil bo‘ldi.

Har bir insonning taqdirida uning kelajak yo‘lini belgilab beradigan, orzularga qanot bag‘ishlaydigan inson bo‘ladi. Jobirbekning hayotida ham ana shunday ulug‘ siymo bor edi. Uning tog‘asi – mayor To‘raboyev Abdubanno Abdurahmonovich uzoq yillar Favqulodda vaziyatlar tizimida sharaf bilan xizmat qilib, Namangan tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i lavozimidan munosib nafaqaga chiqqan fidoyi ofitserdir. Qariyb 38 yillik xizmat davomida orttirilgan tajriba, mardlik va fidoyilik yosh jiyan uchun haqiqiy hayot maktabiga aylandi.

Tog‘asining kecha-yu kunduz xalq osoyishtaligi yo‘lida xizmat qilishi, eng murakkab vaziyatlarda ham burchiga sodiq qolishi, insonlar hayotini saqlab qolish yo‘lida hech narsadan tap tortmasligi yosh Jobirbek qalbida chuqur taassurot qoldirdi. Ana shu fazilatlar uning qalbida Favqulodda vaziyatlar tizimida xizmat qilish orzusini uyg‘otdi. Oradan yillar o‘tib, bu orzu qat’iy maqsadga aylandi.

“Qutqaruvchi bo‘lish men uchun shunchaki kasb egallash, maosh topish emas. Har safar xizmatga otlanganimda, bugun kimningdir hayoti mening hushyorligim va qat’iyatimga bog‘liq bo‘lishi mumkinligini his qilaman”, deydi kapitan Jobirbek Olimjonov.

Bu fikr uning hayotiy qarashlari va kasbiga bo‘lgan munosabatini yaqqol ifodalaydi.

2003–2012-yillarda To‘raqo‘rg‘on tumanidagi 2-maktabda tahsil olgan Jobirbek bilimga chanqoqligi, namunali xulqi va intizomi bilan ustozlari e’tiborini qozondi. U maktab davridayoq nafaqat fanlarni puxta o‘zlashtirishga, balki jismoniy chiniqishga ham katta ahamiyat berdi. Chunki kelajakda tanlagan kasbi kuchli iroda, sog‘lom tana va mustahkam ruhni talab qilishini yaxshi anglar edi.

2012–2015-yillarda To‘raqo‘rg‘on tumani kasb-hunar kollejida tahsil olib, o‘z bilim va salohiyatini yanada mustahkamladi. Bu davr uning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun muhim poydevor bo‘ldi. Tinimsiz izlanish, qat’iyat va maqsad sari intilish natijasida 2015-yilda Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasiga o‘qishga qabul qilindi.

Akademiyada o‘tgan besh yil uning hayotidagi eng muhim bosqichlardan biriga aylandi. Bu yerda u nazariy bilimlar bilan bir qatorda harbiy intizom, rahbarlik, tezkor fikrlash, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va favqulodda harakat qilish ko‘nikmalarini puxta egalladi. Har bir mashg‘ulot, har bir amaliy sinov va har bir dala-o‘quv mashqlari bo‘lajak ofitserning matonatini yanada mustahkamladi.

2020-yilda Akademiyani muvaffaqiyatli tamomlagach, Jobirbek Olimjonov Namangan viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tizimida xizmat faoliyatini boshladi. Dastlab obyektlarda yong‘in xavfsizligini ta’minlashni tashkil etish bo‘limida katta inspektor sifatida faoliyat yuritdi. Mas’uliyatli vazifalarni sidqidildan bajarishi, tashabbuskorligi va tashkilotchilik qobiliyati qisqa vaqt ichida rahbariyat e’tiborini tortdi.

2022–2025-yillar davomida mazkur bo‘lim boshlig‘i sifatida samarali mehnat qilib, yong‘in xavfsizligini ta’minlash, profilaktik tadbirlarni tashkil etish va jamoa faoliyatini takomillashtirish borasida munosib natijalarga erishdi. 2026-yil yanvar oyidan boshlab esa Chust tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi katta inspektori sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Uning yetuk mutaxassis va rahbar sifatida shakllanishida tajribali ustozlari, xususan, 2019–2023-yillarda viloyat boshqarmasi boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritgan general-mayor Qosimali Ahmedovning hayotiy maktabi muhim o‘rin tutdi.

Sport Jobirbek Olimjonov hayotining ajralmas qismiga aylangan. U jismoniy chiniqish nafaqat musobaqalarda g‘olib bo‘lish, balki favqulodda vaziyatlarda tezkor va aniq harakat qilishning ham muhim omili ekanini yaxshi anglaydi. Shu bois u xizmat bilan bir qatorda sport mashg‘ulotlariga ham muntazam vaqt ajratib keladi.

U sport olamiga o‘n yoshida To‘raqo‘rg‘on tumani sport maktabida murabbiylari Nodir aka va Mahkam aka qo‘lida ilk qadamini qo‘ygan edi. Aynan shu maskanda undagi iqtidor va g‘alabaga bo‘lgan ishtiyoq shakllangan. Ayniqsa, ammasining o‘g‘li, O‘zbekiston milliy terma jamoasi hamda “Navbahor”, “Qo‘qon-1972” va “Surxon” futbol klublarida muvaffaqiyatli to‘p surgan mashhur futbolchi Tohir Shamsiddinovning sportdagi yutuqlari yosh Jobirbek uchun katta ruhiy turtki bo‘ldi. U sport orqali inson o‘zida iroda, sabr, intizom va jamoa bilan ishlash madaniyatini tarbiyalashini chuqur angladi.

Bugungi kunda ham u sportni shunchaki sevimli mashg‘ulot emas, balki xizmat faoliyatining muhim tarkibiy qismi deb biladi. Chunki qutqaruvchi har qanday vaziyatda jismonan baquvvat, ruhiy jihatdan bardoshli va tezkor qaror qabul qila oladigan mutaxassis bo‘lishi zarur.

2020-yildan buyon Jobirbek Olimjonov Namangan viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi futbol jamoasiga sardorlik qilib kelmoqda. Jamoa safida erishilgan natijalar ham uning yetakchilik fazilatlari va jamoani bir maqsad yo‘lida birlashtira olish qobiliyatidan dalolat beradi.

2022-yilda Namangan viloyatidagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida o‘tkazilgan futbol musobaqasida jamoa faxrli birinchi o‘rinni egalladi. 2023-2024-yillarda o‘tkazilgan ana shunday nufuzli musobaqalarda ikkinchi o‘rin, 2025-yilda esa uchinchi o‘rin qo‘lga kiritildi.

Bundan tashqari, 2024- va 2025-yillarda Namangan harbiy prokurori kubogi musobaqasida ketma-ket ikki marotaba chempionlikni qo‘lga kiritishdi. Yoshlar ittifoqining Namangan viloyati kubogi musobaqasida ham jamoa g‘oliblik shohsupasiga ko‘tarildi.

Respublika miqyosidagi bahslarda ham ular munosib ishtirok etib kelmoqda. Xususan, 2022-, 2023- va 2024-yillarda Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi respublika musobaqasining final bosqichiga ketma-ket uch marotaba yo‘llanma olishib, uch marta kumush medallarni qo‘lga kiritishdi. 2025-yilda esa respublika bosqichida faxrli uchinchi o‘rin sohibiga aylanishdi. Bu musobaqalar natijasida jamoaning yildan yilga tajribasi ortib, mahorati toblanib borayotir.

Sport maydonida shakllangan birdamlik, mas’uliyat va o‘zaro ishonch xizmat faoliyatida ham o‘z samarasini bermoqda. Zero, favqulodda vaziyatlarda ham g‘alaba faqat jamoaviy hamjihatlik, puxta tayyorgarlik va bir-biriga bo‘lgan ishonch orqali qo‘lga kiritiladi.

“Yelkadagi unvon insonni ulug‘lamaydi. Xalqning ishonchini qozonish va uni oqlash – men uchun eng katta sharaf. Har kuni shu ishonchga munosib bo‘lishga intilaman”, deydi qahramonimiz.

Bugungi kunda Jobirbek Olimjonovning hayotiy shiori ham ana shu ezgu tamoyilga uyg‘un. Xalq va ota-onasining roziligini topish, kasbiga sadoqat bilan xizmat qilish, doimo o‘z ustida ishlash uning kundalik hayot mezoniga aylangan.

Kelgusida u Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i darajasigacha yetib borishni, tizim ravnaqiga yanada katta hissa qo‘shishni, ustozlarining munosib shogirdi va tog‘asining davomchisi bo‘lishni o‘z oldiga oliy maqsad qilib qo‘ygan. Buning uchun u har kuni bilimini boyitmoqda, jismoniy va kasbiy tayyorgarligini muntazam oshirib bormoqda.

Kapitan Jobirbek Olimjonovning hayot yo‘li hikoyasini o‘rganar ekanmiz, inson o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ysa, qiyinchilik va mehnatdan cho‘chimasa, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilsa, albatta, yuksak marralarga erishadi, degan xulosaga keldik. Bugun yurtimizda ana shunday bilimli, fidoyi, mard va tashabbuskor ofitserlar safi tobora kengayib borayotgani mamlakatimiz tinchligi va xalqimiz osoyishtaligining eng mustahkam kafolatlaridan biridir.

Gulnora SHERMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri

MUVOFIQLASHTIRUVCHI KENGASH YIG‘ILISHI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HARBIY PROKURATURASI TOMONIDAN QUROLLI KUCHLAR VAZIRLIK VA IDORALARINING MUVOFIQLASHTIRUVCHI KENGASH YIG‘ILISHI O‘TKAZILDI.



Videokonferensaloqa tarzida o‘tgan muloqotda Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari, barcha harbiy okrug, qo‘shilma, harbiy qism, muassasa, doimiy nazorat-tekshiruv idoralari, shuningdek, harbiy huquqni muhofaza qiluvchi organlar birinchi rahbarlari ishtirok etdi.

Muhokamalarda joriy yilning o‘tgan davrida qo‘shinlarning qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyati ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni tomonidan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosi doirasida amalga oshirilgan tadbirlar natijalariga alohida urg‘u berildi.

Sohalarni raqamlashtirish ishlari, shuningdek, kiberxavfsizlikni, harbiy xizmatchilarning huquqlarini, oila a’zolarining bandligini va ijtimoiy himoyasini ta’minlash, salomatligini saqlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘nalishidagi hamkorlik masalalari muhokama markazida bo‘ldi.

Yakunda ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Fayoz ASHUROV,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bo‘lim katta harbiy prokurori, adliya podpolkovnigi

FUQARO MUHOFAZASINI TA’MINLASH QOIDALARI TASDIQLANDI



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida avvalo inson manfaatlarini himoya qilish, aholi farovonligini ta’minlash hamda xalqni rozi qilishdek ezgu maqsadlar mujassam. Shu bois turli xatarlar paydo bo‘layotgan hozirgi zamonda fuqaro muhofazasini ta’minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona va dono siyosati sabab yurtimizda barcha soha va tarmoqlar qatori favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini ham keng rivojlanishi Fuqaro muhofazasi tizimining yangi istiqbolli davrini boshlab berdi. Jumladan, Davlatimiz rahbari tomonidan “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi farmonining qabul qilinishi natijasida favqulodda vaziyatlarning ilmiy-texnik yondashuvlar asosida samarali profilaktikasi va davlat nazoratining yangi mexanizmlarini yo‘lga qo‘yishning milliy tajribasi yaratildi.

Farmonning ijrosini ta’minlash hamda aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasida davlat nazoratini yuritish tartibini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek, fuqaro muhofazasini ta’minlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasini ta’minlash qoidalari” belgilandi. U aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, tashkilotlar hamda fuqarolar uchun qo‘yiladigan talablar, o‘ta muhim, toifalangan, yong‘in-portlash hamda kimyoviy xavfli va boshqa iqtisodiyot obyektlari, ta’lim va davolash-profilaktika muassasalari, odamlar gavjum bo‘ladigan joylar uchun belgilangan talablarni qamrab olgan.

Shuningdek, aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashga oid qoidalar ham bor. Qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalari uchun talablar, favqulodda vaziyat ro‘y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro‘y bergani haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimi bo‘yicha talablar, xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik hududlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofazani hamda seysmik xavfsizlikni ta’minlashga oid talablar ham qamrab olingani e’tiborga molik.

Mazkur qoida va talablar favqulodda vaziyatlar profilaktikasini amalga oshirishda muhim qo‘llanma hisoblanadi.

Qoidaga asosan Qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalari xavfli ishlab chiqarish obyektlarida, muhim mudofaa va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan tashkilotlarda, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, ishchi va xizmatchilar soni 50 va undan ortiq bo‘lgan vazirlik va idoralar markaziy apparatlarida tuzilishi lozim. Xususan, obyekt ahamiyatidan kelib chiqqan holda, fuqaro muhofazasi tadbirlarini bajarish uchun xizmat ko‘rsatuvchi texnik xodimlar va ishchilar tarkibidan iborat aloqa, kuzatuv, qutqaruv, yong‘in o‘chirish, tibbiy yordam ko‘rsatish, jamoat tartibini saqlash, qo‘riqlash, himoya inshootlariga xizmat ko‘rsatish, radiatsion-kimyoviy nazorat, maxsus ishlov berish va avariya-tiklash guruhlari tuzilishi hamda guruh shaxsiy tarkiblari qonunchilikka muvofiq majburiy tartibda attestatsiyadan o‘tishi shart.

Qoidalarning yana bir muhim qismi aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik hududlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish talablariga asosan Gidrometeorologiya xizmati agentligi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, tegishli vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklariga monitoring davomida tasarrufidagi obyektlarga xavf soluvchi gidrometeorologik va geologik hududlardan muhofaza qilish bo‘yicha muhandislik-texnik va boshqa chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan ogohlantirishlar tayyorlaydi. Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan birgalikda ushbu ogohlantirishlarning bajarilishini nazorat qiladi.

Seysmik xavfsizlikni ta’minlashga oid talablar ham “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasini ta’minlash qoidalari”ning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bunda Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda Jismoniy va yuridik shaxslarning zilzila sodir bo‘lganda harakatlanish va unga tayyorgarlik ko‘rish sohasidagi vazifalari keltirib o‘tilgan.

Yorqinbek ABROLOV,
“Qorasuv” qarorgohi Davlat Rezedensiyasi obyektlarida FVB inspektori, leytenant





Samarali yondashuv

YOZ FASLI ELEKTR ENERGIYASI ISTE'MOLINING ORTISHI HAMDA GAZ JIHOZLARIDAN FAOL FOYDALANISH DAVRI HISOBLANADI. BU ESA YONG'INLAR KELIB CHIQISHI XAVFINI OSHIRADI. ANA SHUNDAY HOLATLARNING OLDINI OLISH, AHOLI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA YONG'INLAR SONINI KAMAYTIRISH MAQSADIDA RESPUBLIKA BO'YLAB "DOLZARB 60 KUN" PROFILAKTIK TADBIRLARI IZCHIL AMALGA OSHIRILMOQDA.

Mazkur tadbirlar doirasida Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan ham keng qamrovli profilaktik ishlar tashkil etildi. Asosiy e'tibor aholi yashash joylarida elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gazdan xavfsiz foydalanish, yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga qaratilmoqda.

Ishchi guruhlar tomonidan viloyat hududidagi uy-joy fondi bosqichma-bosqich o'rganilmoqda. Jumladan, tadbirning ikkinchi 10 kunligi davomida mavjud 591 ming 796 ta hovli uyning 52 ming 456 tasida, 2 ming 200 ta ko'p qavatli uyning 934 tasida, shuningdek, 62 ming 587 ta xonadonning 21 ming 885 tasida profilaktik tekshiruvlar o'tkazildi. Shu bilan birga, viloyatdagi 34 ta talabalar turar joyining barchasida yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishi yuzasidan atroflicha o'rganishlar amalga oshirildi.

O'rganishlar davomida jami 4 ming 382 ta yong'in xavfsizligiga oid kamchilik aniqlandi. Eng muhimi, mas'ul xodimlarning tushuntirishlari va joyida ko'rilgan choralar natijasida ularning 4 ming 203 tasi, ya'ni 96 foizi, shu zahotiyoq bartaraf etildi. Bu esa profilaktika ishlarining amaliy samarasi va aholi tomonidan xavfsizlik talablariga nisbatan mas'uliyat bilan yondashilayotganidan dalolat beradi.

Profilaktik tadbirlar davomida xonadon egalariga nosoz elektr jihozlaridan foydalanmaslik, gaz uskunalarini muntazam texnik ko'rikdan o'tkazish, maishiy suyultirilgan gaz ballonlaridan belgilangan talablar asosida foydalanish hamda bolalarni nazoratsiz qoldirmaslik bo'yicha batafsil tushuntirishlar berilmoqda. Shuningdek, aholiga yong'in sodir bo'lgan taqdirda harakatlanish tartibi va tezkor xizmatlarni chaqirish qoidalari ham eslatilmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, yong'inlarning aksariyati inson omili, ya'ni beparvolik va xavfsizlik talablariga rioya etmaslik oqibatida yuzaga keladi. Shu bois har bir fuqaroning ogohligi va mas'uliyati favqulodda hodisalarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Dolzarb 60 kun" tadbirlari doirasida amalga oshirilayotgan bunday tizimli ishlar viloyatda yong'inlar profilaktikasini yanada kuchaytirish, aholi hayoti va mol-mulkini muhofaza qilish hamda xavfsiz yashash muhitini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

F.HUSANBOYEV,
Andijon shahar FV bo'limi kichik inspektori

M.YO'LDOSHEV,
Buloqboshi tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari

GAVJUM MASKANLAR *nazorat ostida*

BOZORLARDA YONG'IN XAVFSIZLIGI QOIDALARI KO'PINCHA FAQAT TEKSHIRUV KELGANDA ESGA OLINADI. AYRIM TADBIRKORLAR UCHUN O'T O'CHIRGICHNING SOZLIGINI TEKSHIRISH, ELEKTR SIMLARINI TARTIBGA KELTIRISH YOKI EVAKUATSIYA YO'LAKLARINI OCHIQ SAQLASH IKKINCHI DARAJALI MASALADEK TUYULADI. ASLIDA ESA E'TIBORSIZ QOLDIRILGAN BITTA NOSOZ SIM, YO'LAKKA QO'YILGAN BITTA SAVDO RASTASI YOKI ISHLAMAYDIGAN O'T O'CHIRGICH YUZLAB INSONLAR HAYOTINI XAVF OSTIGA QO'YISHI MUMKIN. FAVQULODDA VAZIYAT SODIR BO'LGANIDA ESA AFSUSLANISHGA ANCHA KECH BO'LADI...



Ana shunday omillarning oldini olish maqsadida bozorlarda yong'in xavfsizligi holatini o'rganish va profilaktik nazorat tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, bozor – bu har kuni minglab fuqarolar jamlanadigan, xavfsizlik talablariga nisbatan har qanday beparvolik juda qimmatga tushishi mumkin bo'lgan jamoat hududidir.

Shu maqsadda polkovnik Farhod Mirzayev tomonidan G'uzor tumanidagi "Barakali Axmadshoh avlodlari" MCHJga qarashli bozorda yong'in xavfsizligi holati o'rganildi.

O'rganish davomida yong'in o'chirishning birlamchi vositalari bilan ta'minlanganlik, ichki va tashqi yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimlarining sozligi, evakuatsiya yo'laklarining holati hamda maxsus yong'in-qutqaruv texnikalarining erkin harakatlanishi uchun yaratilgan sharoitlar batafsil ko'zdan kechirildi.

Shu kabi nazorat-profilaktika tadbirlari Qarshi shahri hamda Koson tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi mas'ullari tomonidan hududdagi bozorlarda ham olib borildi. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan bozor ma'muriyati va tadbirkorlarga amaliy tavsiyalar berilib, ularni qisqa muddatlarda bartaraf etish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bozorlar alohida e'tibor talab qiladigan obyektlar hisoblanadi. Elektr jihozlarining ko'pligi, tez yonuvchi mahsulotlarning mavjudligi, transport vositalari va odamlar oqimining yuqoriligi ehtimoliy yong'inning tez tarqalishiga sharoit yaratishi mumkin. Bunday vaziyatda evakuatsiya yo'laklarining ochiqligi, yong'in o'chirish vositalarining shayligi va suv ta'minoti tizimlarining sozligi oddiy talab emas, balki insonlar xavfsizligini ta'minlaydigan hal qiluvchi omillardir. Profilaktika ishlari orqali esa bozor ma'muriyati, tadbirkorlar va mas'ul xizmatlarning xavfsizlik borasidagi mas'uliyati yanada kuchaytirib borilmoqda.

Mashrab AHMEDOV,
podpolkovnik

HUSHYORLIK – XAVFNI TASLIM QILGUVCHI ASOSIY KUCH

"DOLZARB 60 KUN" PROFILAKTIK TADBIRLARI DOIRASIDA JIZZAX VILOYATI FAVQULODDA VAZIYATLAR BOSHQARMASINING ZOMIN TUMANI FAVQULODDA VAZIYATLAR BO'LIMI XODIMLARI TOMONIDAN AHOLI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH, YONG'INLARNING OLDINI OLISH HAMDA FAVQULODDA VAZIYATLAR XAVFINI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN KENG QAMROVLI PROFILAKTIK TADBIRLAR TIZIMLI RAVISHDA AMALGA OSHIRILMOQDA.

Tadbirlar davomida soha xodimlari tuman hududida faoliyat yuritayotgan yirik ishlab chiqarish korxonalari, ijtimoiy soha obyektlari hamda bolalarning yozgi dam olish oromgohlarida bo'lib, obyekt rahbarlari, mas'ul xodimlar, ishchi-xizmatchilar, tarbiyachilar va oromgohlarda dam olayotgan yoshlar ishtirokida profilaktik uchrashuvlar tashkil etildi.

Uchrashuvlarda yozning jazirama kunlarida havo haroratining keskin oshishi, elektr energiyasi iste'molining ko'payishi, qurib qolgan o't-o'lanlar hamda inson omili ta'sirida yong'inlar kelib chiqish ehtimoli ortishi alohida ta'kidlanib, har bir fuqaroning yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etishi muhim ekani tushuntirildi.

Shuningdek, ishtirokchilarga yong'inlarning asosiy kelib chiqish sabablari, elektr va gaz jihozlaridan xavfsiz foydalanish, elektr tarmoqlarini ortiqcha yuklamaslik, ochiq olovdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, tez alangalanuvchi moddalarni belgilangan talablar asosida saqlash hamda favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hollarda to'g'ri harakat qilish tartiblari yuzasidan batafsil tushunchalar berildi.

Obyektlardagi birlamchi yong'in o'chirish vositalarining sozligi, evakuatsiya yo'laklari va chiqish eshiklarining ochiqligi, yong'in xavfsizligi burchaklari, ogohlantiruvchi belgilar hamda yong'inga qarshi suv ta'minoti holati ham ko'zdan kechirilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha mas'ullarga amaliy tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

Bundan tashqari, xodimlar va oromgoh tarbiyalanuvchilari ishtirokida birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanish, shartli yong'in sodir bo'lgan holatda xavfsiz evakuatsiyani amalga oshirish hamda tezkor xizmatlarga o'z vaqtida xabar berish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Tadbir ishtirokchilariga yong'in xavfsizligiga oid targ'ibot materiallari va eslatmalar tarqatildi.

Mazkur profilaktik tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad – yoz mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish, aholi, ayniqsa bolalar va yoshlarning hayoti hamda sog'lig'ini muhofaza qilish, obyektlarda yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta'minlash, shuningdek, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda to'g'ri va tezkor harakat qilish ko'nikmalarini yanada mustahkamlashdan iboratdir.

Inomjon AMANOV,
Zomin tumani FVB boshlig'i, mayor

ISSIQ OB-HAVODA YONG‘IN XAVFSIZLIGI

YOZ FASLIDA HARORATNING KESKIN KO‘TARILISHI YONG‘IN XAVFSIZLIGIGA ALOHIDA E’TIBOR QARATISHNI TALAB ETADI. AYNIQSA, ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI, TASHKILOT VA MUASSASALARDA TEXNOLOGIK JARAYONLARNING UZLUKSIZ DAVOM ETISHI, ELEKTR QURILMALARINING YUQORI YUKLAMA OSTIDA ISHLASHI HAMDA YONUVCHAN MODDALAR MAVJUDLIGI YONG‘IN KELIB CHIQISHI XAVFINI OSHIRISHI MUMKIN.



Yurtimizda amalga oshirilayotgan “Dolzarb 60 kun” tadbirlari doirasida aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida yong‘in xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya etish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish hamda o‘quv mashqlarini o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Issiq kunlarda ehtiyotkorlikni yanada oshirish zarur. Yuqori harorat sharoitida elektr tarmoqlari va qurilmalarining qizib ketishi, elektr simlarining qisqa tutashuvi, texnologik uskunalarning me’yoridan ortiqcha yuklama bilan ishlashi, shuningdek, yonuvchan materiallarning issiqlik manbalariga yaqin joylashtirilishi yong‘in xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli korxona va tashkilotlarda texnologik jarayonlarni amalga oshirishda yong‘in xavfsizligi talablariga qat’iy amal qilish, mavjud yong‘inga qarshi vositalarning sozligini muntazam tekshirish hamda xodimlarning xavfsizlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish zarur.

Oylik tadbirlari doirasida aholi bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan o‘quv mashqlarida quyidagi yong‘in xavfsizligi talablariga alohida e’tibor qaratish lozimligiga urg‘u berilmoqda. Jumladan:

– elektr tarmoqlari va elektr jihozlarining texnik sozligini muntazam nazorat qilish;

– elektr qurilmalarini ortiqcha yuklama bilan ishlatmaslik;

– nosoz elektr simlari va jihozlaridan foydalanmaslik;

– yonuvchan va tez alangalanuvchi moddalarni belgilangan talablarga muvofiq saqlash;

– texnologik uskunalarning qizib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– ishlab chiqarish hududlarida chekish va ochiq olovdan foydalanish tartibiga qat’iy rioya qilish;

– payvandlash va boshqa olovli ishlarni belgilangan yong‘in xavfsizligi talablari asosida tashkil etish;

– o‘t o‘chirgichlar va boshqa birlamchi yong‘in o‘chirish vositalarini doimo soz va foydalanishga tayyor holatda saqlash;

– evakuatsiya yo‘laklari va chiqish eshiklarini to‘sib qo‘ymaslik;

– ishchi-xodimlar bilan yong‘in xavfsizligi bo‘yicha yo‘riqnomalar va amaliy mashg‘ulotlarni muntazam o‘tkazish.

Shuningdek, korxona va tashkilot rahbarlari tomonidan yong‘in xavfsizligi holatini doimiy nazorat qilish, aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish va xodimlarning belgilangan xavfsizlik talablariga rioya etishini ta’minlash ham kun tartibidagi dolzarb vazifa ekani takror va takror eslatilmoqda.

Yong‘in ko‘pincha oddiy ehtiyotsizlik yoki xavfsizlik qoidalariga beparvolik oqibatida yuzaga keladi. Birgina e’tiborsizlik inson hayotiga xavf tug‘dirishi, katta miqdorda moddiy zarar yetkazishi va ishlab chiqarish jarayonining to‘xtab qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, issiq yoz faslida “Dolzarb-60 kun” tadbirlari doirasida yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etish, xavfli holatlarning oldini olish va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga mas’uliyat bilan yondashish barchaning birlamchi vazifasidir.

O‘tkazilayotgan profilaktik tadbirlar hamda o‘quv mashqlaridan ko‘zlangan maqsad aholi xavfsizligini ta’minlash, ularning favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanish ko‘nikmasini yanada oshirishdan iboratdir.

Iskandar NURMATOV,
mayor

Gaz to‘ldirish shoxobchasidagi o‘quv mashg‘ulot

RESPUBLIKA BO‘YLAB JORIY YILNING 1-IYULIDAN 30-AVGUSTIGA QADAR O‘TKAZILAYOTGAN “DOLZARB 60 KUN” PROFILAKTIK TADBIRLARI DOIRASIDA TOSHKENT VILOYATI BO‘KA TUMANIDA JOYLASHGAN GAZ TO‘LDIRISH SHOXOBCHASIDA O‘QUV-AMALIY TAKTIK MASHG‘ULOT TASHKIL ETILDI.

Mazkur mashg‘ulotning asosiy maqsadi obyektda xizmat olib borayotgan ishchi-xodimlarning favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri va tezkor harakat qilish ko‘nikmalarini yanada mustahkamlash, yong‘in va boshqa xavfli holatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tayyorgarlikni oshirishdan iborat bo‘ldi.

Mashg‘ulot davomida shartli ravishda yuzaga kelgan favqulodda vaziyat bo‘yicha xodimlarning harakatlari sinovdan o‘tkazildi. Yong‘in sodir bo‘lganda dastlabki harakatlarni amalga oshirish, birlamchi yong‘in o‘chirish vositalaridan foydalanish, hududni xavfsiz evakuatsiya qilish hamda mas’ul xizmatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amaliy mashqlar bajarildi. Mutaxassislar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavfli vaziyatlarni bartaraf etish usullari amaliy tarzda namoyish etildi.

Tadbir yakunida Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi mutaxassislari tomonidan gaz to‘ldirish shoxobchasining yong‘in xavfsizligi holati batafsil o‘rganildi. Ko‘zdan kechirish jarayonida aniqlangan ayrim kamchiliklar yuzasidan mas’ullarga tegishli tavsiyalar berilib, yong‘in xavfsizligi talablariga qat’iy rioya etish, mavjud texnik vositalarning doimiy sozligini ta’minlash hamda xodimlarning nazariy va amaliy bilimlarini muntazam oshirib borish bo‘yicha ko‘rsatmalar taqdim etildi.

Bunday o‘quv-amaliy mashg‘ulotlar favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong‘in xavfsizligi madaniyatini yuksaltirish hamda aholi va obyektlar xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdurashidjon ZOKIROV,
Bo‘ka tumani FVB boshlig‘i o‘rinbosari, katta leytenant

Shahobiddin OMONOV,
inspektor

“Dolzarb 60 kun”

Havo haroratining oshishi, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksiz davom etishi hamda texnogen xavf omillarining ortishi o‘ta muhim, toifalangan va alohida ahamiyatga ega obyektlarda xavfsizlik choralarini yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Shu maqsadda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Dolzarb 60 kun” tadbirlari doirasida favqulodda vaziyatlar va yong‘inlarning oldini olishga qaratilgan keng ko‘lamli profilaktik ishlar, o‘quv taktik mashqlari muntazam ravishda olib borilmoqda.



Mazkur tadbirlarning asosiy maqsadi strategik ahamiyatga ega korxonalar, energetika, neft-gaz, kimyo sanoati, yirik ishlab chiqarish majmualari hamda moddiy boyliklar saqlanadigan obyektlarda xavfsizlik darajasini oshirish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olishdan iborat.

Tadbirlar davomida obyektlarning yong‘in xavfsizligi holati o‘rganilib, elektr xo‘jaligi, texnologik uskunalar, yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimlari, avtomatik yong‘in signalizatsiyasi va yong‘in o‘chirish vositalarining texnik sozligi tekshirilmoqda. Shuningdek, evakuatsiya yo‘laklari va chiqish eshiklarining holati nazorat qilinib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan amaliy choralar ko‘rilmoqda.

Alohida e’tibor inson omili bilan bog‘liq xavflarni kamaytirishga qaratilmoqda. Korxona xodimlari bilan yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, favqulodda vaziyatlarda harakatlanish tartibi, birlamchi yong‘in o‘chirish vositalaridan foydalanish bo‘yicha tushuntirish ishlari va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilmoqda.

Anomal issiq ob-havo sharoitida yonuvchi va portlovchi moddalar bilan ishlashda qo‘shimcha ehtiyot choralarini ko‘rish, ochiq olovdan foydalanishni cheklash, elektr qurilmalarining ortiqcha yuklanishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda hududlarni quruq o‘t-o‘lan va chiqindilardan tozalash yuzasidan tavsiyalar berilmoqda.

“Dolzarb 60 kun” profilaktik tadbirlari nafaqat mavjud xavflarni aniqlash va bartaraf etish, balki korxonalarda xavfsizlik madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qilmoqda. Chunki har qanday favqulodda vaziyatning oldini olish uni bartaraf etishdan ko‘ra samaraliroq va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

O‘ta muhim, toifalangan va alohida ahamiyatga ega obyektlarda xavfsizlikni ta’minlash davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biridir. “Dolzarb 60 kun” tadbirlari doirasida olib borilayotgan profilaktik ishlar hamda o‘quv mashqlari ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash, insonlar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish hamda yong‘in va favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Izzatilla ISLOMOV,
FVV O‘MT va AOFVB inspektori, mayor

OCHIQ MULOQOT TASHKIL ETILDI

SAMARQAND VILOYATI FAVQULODDA VAZIYATLAR BOSHQARMASI MAS’UL XODIMLARI TOMONIDAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING 2026-YIL 22-IYUNDA QABUL QILINGAN “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA, KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK MUQARRARLIGINI TA’MINLASHGA QARATILGAN QO‘SHIMCHA VA O‘ZGARTIRISHLAR KIRITISH TO‘G‘RISIDA”GI QONUNINING MAZMUN-MOHIYATINI SHAXSIY TARKIBGA YETKAZISH MAQSADIDA BOSHQARMANING TARKIBIY TUZILMALARI HAMDA SHAHAR VA TUMAN FAVQULODDA VAZIYATLAR BO‘LIMLARIDA SEMINAR VA DAVRA SUHBATLARI TASHKIL ETILDI.

Xodimlarga yangi qonun bilan amaldagi qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning mazmuni, ularning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishdagi ahamiyati, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, shuningdek, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini kuchaytirishga qaratilgan normalar yuzasidan batafsil tushuntirishlar berildi.

Seminarlarda korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki har bir davlat xizmatchisining muhim vazifasi ekani alohida ta’kidlandi. Xodimlarga xizmat vazifalarini bajarishda halollik, xolislik va qonuniylik tamoyillariga qat’iy amal qilish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaatlar yo‘lida foydalanmaslik hamda korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelishining oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Shuningdek, qonun bilan joriy etilgan yangi huquqiy mexanizmlar, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan me’yorlar hamda davlat xizmatida halollik standartlarini ta’minlash masalalari misollar asosida tushuntirildi. Ishtirokchilarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amaldagi qonunchilik talablariga rioya etishning ahamiyati, xizmat intizomini mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan zarur tavsiyalar berildi.

Ochiq muloqot ruhida savol-javob tashkil etildi. Unda shaxsiy tarkib tomonidan yangi qonunning amaliyotdagi qo‘llanilishi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish, davlat xizmatchilarining huquq va majburiyatlari hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi faoliyatiga oid qator savollar o‘rtaga tashlandi. Shaxsiy xavfsizlik bo‘limi mas’ullari tomonidan barcha savollarga amaldagi qonunchilik normalari asosida batafsil javoblar berilib, xizmat faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlar misolida huquqiy tushuntirishlar taqdim etildi.

Seminar yakunida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida murosasiz munosabatni shakllantirish, xodimlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, xizmat faoliyatida qonuniylik, shaffoflik va halollik tamoyillariga qat’iy amal qilish Favqulodda vaziyatlar tizimining ustuvor vazifalaridan biri ekani yana bir bor ta’kidlandi.

Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan korrupsiyaning oldini olish, xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda davlat xizmatida halollik tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan targ‘ibot va profilaktik tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.

Sardor YODGOROV,
Samarqand viloyati FVB Shaxsiy xavfsizlik bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik

HAR QANDAY DAVLAT TIZIMINING SAMARADORLIGI, AVVALO, UNDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN XODIMLARNING QONUNGA HURMATI, XIZMAT INTIZOMIGA SADOQATI VA HALOLLIK TAMOYILLARIGA AMAL QILISHI BILAN BELGILANADI. FAVQULODDA VAZIYATLAR TIZIMIDA ESA BU TALABLAR YANADA DOLZARB. ZERO, INSON HAYOTI VA XAVFSIZLIGI UCHUN MAS’UL BO‘LGAN XODIMNING HAR BIR QARORI YUKSAK MAS’ULIYAT, POK VIJDON VA QAT’IY INTIZOMGA TAYANISHI LOZIM.

XAVFSIZ TIZIM SARI

Shu maqsadda Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida rahbariyat va shaxsiy tarkib ishtirokida navbatdagi ma’naviyat va ma’rifat soati tashkil etildi. Unda tizimda xizmat intizomini mustahkamlash, korrupsion jinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda xodimlarda qonunga hurmat va mas’uliyat hissini yanada kuchaytirishga qaratilgan dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Tadbir davomida mutaxassislar korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf soluvchi illatlardan biri ekanini alohida ta’kidladilar. Xizmat vazifasini sidqidildan bajarish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, qonun talablariga og‘ishmay amal qilish va har qanday noqonuniy taklifni qat’iy rad etish davlat xizmatchisining asosiy burchi ekani qayd etildi.

Shuningdek, yig‘ilishda xizmat va ijro intizomini mustahkamlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, haydovchilik madaniyatini yuksaltirish, axborot xavfsizligini ta’minlash hamda oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish masalalari ham atroflicha ko‘rib chiqildi. Oiladagi barqaror muhit, ma’naviy yetuklik va shaxsiy mas’uliyat xizmat faoliyatidagi intizomning muhim omillaridan biri ekani ta’kidlandi.

Tadbirda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga qat’iy rioya etish, har bir xodimning kasbiy odobi va xizmat madaniyatini yuksaltirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri ekani yana bir bor eslatib o‘tildi.

Favqulodda vaziyatlar tizimida qonun ustuvorligi va xizmat intizomi nafaqat ichki tartibni mustahkamlaydi, balki aholining tizimga bo‘lgan ishonchini oshirishga ham xizmat qiladi.

Qashqadaryo viloyati FVB Axborot xizmati

“KORRUPSIYADAN XOLI JAMIYAT QURAMIZ”



KORRUPSIYA – JAMIYAT VA DAVLAT TARAQQIYOTIGA JIDDIY TO‘SQINLIK QILADIGAN, QONUN USTUVORLIGI VA ADOLAT TAMOYILLARIGA PUTUR YETKAZADIGAN ILLATLARDAN BIRIDIR. SHU BOIS MAMLAKATIMIZDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH, UNING OLDINI OLISH, DAVLAT XIZMATCHILARINING MAS’ULIYATINI OSHIRISH, JAMIYATDA KORRUPSIYAGA NISBATAN MUROSASIZ MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHGA ALOHIDA E’TIBOR QARATILMOQDA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida qat’iy pozitsiyasini bildirib, 2026-yilni korrupsiyaga qarshi kurashda “favqulodda holat” yili sifatida belgilash zarurligini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “Takror va takror aytaman: korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan eng jiddiy tahdid. Korrupsiyaga yo‘l qo‘yish – islohotlarga xiyonatdir”.

Mazkur fikr har bir davlat xizmatchisi zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Chunki korrupsiyaga qarshi kurash faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas, balki har bir tashkilot, har bir jamoa va har bir fuqaroning umumiy burchidir.

Farg‘ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tizimida ham korrupsiyaning oldini olish, huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik, xodimlarning huquqiy bilim va mas’uliyatini oshirishga qaratilgan profilaktik va targ‘ibot tadbirlari muntazam ravishda tashkil etib kelinmoqda. Bunda asosiy e’tibor shaxsiy tarkib o‘rtasida korrupsiyaning salbiy oqibatlarini tushuntirish, xizmat faoliyatida qonuniylik va halollik tamoyillariga qat’iy rioya etish, fuqarolar bilan munosabatlarda xolislik va ochiqlikni ta’minlashga qaratilmoqda.

Amalga oshirilayotgan profilaktik ishlarning samarasi sifatida 2026-yilning birinchi yarim yilligida Farg‘ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tizimida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Bu natija tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan ishlarning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Shuningdek, boshqarmada xodimlarning xizmat intizomi va qonuniylikka rioya etishini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish hamda shaxsiy tarkibning yo‘l harakati qoidalariga amal qilish madaniyatini yuksaltirish maqsadida ham muntazam profilaktik tadbirlar o‘tkazilmoqda. Ushbu tadbirlar davomida xizmat vazifalarini bajarishda mas’uliyatli bo‘lish, belgilangan tartib-qoidalarga qat’iy amal qilish, har qanday huquqbuzarlik va korrupsion holatlarga murosasiz munosabatda bo‘lish yuzasidan tushuntirishlar berilmoqda.

Albatta, korrupsiyaga qarshi kurashishda eng samarali yo‘l – uning oqibatlari bilan kurashish emas, balki huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishdir. Buning uchun har bir xodim o‘z xizmat vazifasiga vijdonan yondashishi, qonun va qoidalarga qat’iy amal qilishi, shaxsiy manfaatni xizmat manfaatidan ustun qo‘ymasligi lozim.

Farg‘ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tizimida ham “Korrupsiyaga qarshi kurash – har birimizning burchimiz” tamoyili asosida profilaktik ishlarni izchil davom ettirish, xodimlar o‘rtasida halollik, poklik, mas’uliyat va qonuniylik muhitini yanada mustahkamlash asosiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Zero, korrupsiyadan xoli jamiyat – adolatli va farovon jamiyatdir. Qonun ustuvorligi, halollik va ochiqlik esa davlat taraqqiyoti va xalq farovonligining muhim kafolatidir.

Sardor ABBOZOV,
Farg‘ona viloyati FVB Axborot xizmati boshlig‘i, katta leytenant

OMON QOLISH MO'JIZASI

Har doim qutqaruvchilardan intervyu olib, qutqaruv operatsiyalarini ularning tilidan oqqa ko‘chirar edim. Bu gal biror falokatdan qutqaruvchilar yordami bilan omon qolgan odamlarning fikrlariga quloq solishni istadim. Qutqaruv ko‘ngildagidek kechganmi, ular mamnun bo‘lganmi va hokazo savollarga javob olish ishtiyoqi xayolimda uzoq vaqt aylandi. Faqat o‘shanday odamni topolmay halak edim. Nihoyat izlaganimni topdim!



O‘zbekning uyida nima tugamaydi – marosim tugamaydi. Kunlardan bir kun Shuhratning uyida navbatdagi qarindosh-urug‘ yig‘ini o‘tkaziladigan bo‘ldi. Bu “Xudoyi” nomli marosimda o‘tganlar ruhiga duoyi fotihalar o‘qilib, xotirasi dasturxon atrofida yodga olinadi. Bunday kunda uy egasining qo‘li-qo‘liga tegmay xizmat qiladi. Shu sabab Shuhrat singlisini bog‘chadan olishga o‘zi otlandi. U Olmaliq shahridagi 22-maktab o‘quvchisi. Ammo bo‘y-u basti kelishgan, velosipedda yelday ucha oladigan qobiliyati borligi bois ota-onasiga ancha dastyor bo‘lib qolgandi. Mana, hozir ham singlisini bog‘-chadan olishga shamolday uchib boryapti. 12-maktab ko‘chasidan o‘tib, bog‘chaga yaqin qolgan ham edi, noxos yo‘ldan chiqqan tosh hamma rejalarni barbod qildi. Shuhrat velosipeddan uchib, beton stalbaga boshi bilan kirib ketdi. Uyog‘i qorong‘ulik...

Mahalladan o‘tib qaytayotgan odamlar zudlik bilan Shuhratni stalba orasidan chiqarib olishga tirishar, oyog‘i yerga tegmay, yoriqda muallaq osilib qolgani bois bola battar bo‘g‘ilib, qiynalar, chinqirab yig‘lardi. Garchi u 14 yosh bo‘lsa-da falokat oldida hamma boladay ojiz.

Shuhratga yordam berishga uringan odamlardan yoshi kattarog‘i vaziyatni anglab, qutqaruvchilarni yordamga chaqirish eng to‘g‘ri qaror ekanini aytdi. Qo‘ng‘iroqdan ko‘p o‘tmay Maxsus qutqaruv otryadi voqea joyida hozir-u nozir bo‘ldi.

Olmaliq FVB Maxsus qutqaruv otryadi komandiri, leytenant Mirzoali Ibodullayev atrofni kuzatib, bolani jarohatsiz qutqarish yo‘llarini o‘yladi. Bolaning boshini o‘rab, betonni yorsa yigitchani yo qutqaruv jihozi, yo beton yorig‘i jarohatlab qo‘yishi mumkin edi. Bu esa o‘zi karaxt holdagi o‘quvchiga yana bitta ruhiy zarba berishi mumkin. Uzoq o‘ylab o‘tirmay leytenant Ibodullayev guruhga beton ichidagi armaturani maxsus qutqaruv qaychisi orqali kengaytirib, bolaning boshini asta chiqarib olish bo‘yicha ko‘rsatma berdi. Atrofda tumonat odam endi nima bo‘larkin deb kuzatib turardi.

Maxsus qaychi ishga tushgach ikki daqiqa ham o‘tmay Shuhratning boshi beton yorig‘idan chiqarib olindi. Oyog‘i yerga tekkan, tiriklikni his qilgan yigitcha endi quvonchdan yig‘lardi. Gapning rosti, velosipedda katta tezlikda kelib beton yorig‘iga emas, o‘ziga kelib urilganida boshi majaqlanib ketishi ham hech gapmasdi. Xayriyat, unday bo‘lmadi. Bolakayni juda tez fursatda qutqarib olgan qutqaruvchilarni odamlar qarsaklar, olqishlar bilan kuzatib qo‘ydi.

Olmaliq shahridagi 22-maktab o‘quvchisi **Shuhrat ABDUKARIMOV** hikoyasi

O‘TDA YONMAS, SUVDA CHO‘KMAS

Siz mo‘jizalarga ishonasizmi? Men endi ishonaman. Inson toki o‘z hayotida sodir bo‘lmagunicha mo‘jizaga ishonmas ekan. Qirq yil qirg‘in kelsa ham ajali yetgan o‘ladi, degan gapning mazmunini o‘z hayotimda yanada teran angladim. Bunga sabab esa ikki qo‘lsiz suv ostida hayot uchun kurashganim va omon qolganim edi...



Yillar avval chet elga ishlagani borganimda ehtiyotsizligim sabab ikki qo‘limdan ayrilib, dilim vayron bo‘lib qaytgandim uyga. Oilasini boqaman deb ko‘chaga chiqsay-u nogiron bo‘lib uyga qaytsa har qanday tog‘day erkak ham ruhan sinib, daraxtday qarsillab yiqilar ekan. Qo‘llarimni kesishganida o‘ldim deb o‘ylagandim. Ammo boya aytganimday, qirq yil qirg‘in kelsa ham ajali yetgangina o‘larkan. Yashashda davom etdik.

Shu falokat sabab vaqti-vaqti bilan oshnalarim holimdan xabar olib, bu sinovlarni yengishim, kuchlanishim uchun gap-gashtaklarga chorlab turishardi. Kunlardan bir kun Xatirchidagi Zarafshon daryosi bo‘yida yana yig‘iladigan bo‘ldik. Uch yaqin jo‘ra baliq ovlab, cho‘milib, undan-bundan suhbatlashib o‘tirishni reja qildik. Odam taftini odam oladi deyishadi-ku, men garchi ikki qo‘lsiz baliq ovlolmasam-da, cho‘milolmasam-da, gurung berib turardim.

Gurung degani ko‘ngilga yaqin odamlar bilan bo‘lsa kishiga chindan ruhan quvvat, iztirobli kunlarda yurakka bir qadar darmon dori ulashadi. Men ham jo‘ralarim bilan gurungdan zavq olardim, yashashga ishtiyoq topardim. O‘sha kuni ham zavqim oshib, suv bo‘yida xayol surib o‘tirardim. Ikki jo‘ram birin-ketin suvga shaloblab sakrar, miriqib cho‘milar, suv tubida kim uzoq turish o‘ynar ekan, yoshlikda o‘zimning ham shunday chapdast suzuvchi bo‘lganimni xotirlab, oyog‘imni suvga tiqib o‘tirardim xayol surib. Qaniydi men ham suvga shunday sakray olsam, baliqday suzsam... Xayolimdan yarq etgan bu o‘ydan ham entikib, ham o‘ksinib ketdim bir nafas. Shu on oyog‘im sovuqqotganini his qildim noxos. O‘rnimdan turib, tapchanga qaytaman degan edim boshim aylandimi, oyog‘im toyidimi, hozirgina xayolimdan o‘tgan o‘y o‘nggimda sodir bo‘ldi! Suvga shaloblab yiqildim...

Ikki jo‘ram “Zokir!” “Zokir!” deb meni chaqirar, men qo‘lsiz qanday harakat qilishni bilmay oqim bo‘ylab oqib borardim. Ilgari chapdast suzuvchi bo‘lganim sabab suv yuziga bir chiqib, bir cho‘kib, imkon qadar suv yutmaslikka tirishib, oyog‘im bilan suzish harakatlarini qilib borardim. Suv tubiga tushaman, o‘ldim deb o‘ylayman, chiqaman, yana tirikligimni his qilaman. Shu zayl qanchadir vaqt suza-suza allaqanday shox-shabbalarga borib urildim, hushimni yo‘qotdim.

Qulog‘imga matorli qayiq ovozi eshitildi. O‘zimga kela boshladim. Ko‘zimni ochsam chindan qarshimda qutqaruv qayig‘i turardi. U dunyoda ham matorli qayiq bor ekan-da deyman o‘zimcha. Chunki azbaroyi holsizlikdan allaqachon o‘lib bo‘ldim deb o‘ylagandim. Yo‘q, bular tirik odam-ku deyman yana. Oldimga g‘avvos qutqaruvchilardan biri kelib, meni shox-shabbalardan olib o‘tar ekan, uvushib qolgan oyog‘imda simillagan og‘riqni his qildim, shundagina tirik qolganimni angladim. Angladim-u yig‘lab yubordim. Ammo daryodaligimiz sabab bu sevinch ko‘z yoshlarimni to‘lqinlar oqizib ketdi...

Qutqaruvchilar meni avaylab shox-shabbalar qurshovidan qutqarib, qayiqqa yotqizishdi. Qutqaruv qayig‘ida ketar ekanman, g‘avvoslarning o‘zaro gaplaridan menga nima bo‘lganini anglab borardim. Suvga yiqilganimdan so‘ng shiddatli oqim meni 5 km gacha uzoqlikka oqizib ketgan. Jo‘ralarim meni ushlab qolishga ulgurmagan, zudlik bilan qirg‘oqqa qaytib qutqaruvchilarni chaqirgan. Navbatchilikdagi Maxsus qutqaruv otryadi Suvda qutqaruv guruhi komandiri, mayor Muhriddin G‘ulomov suvda bir soat qolib ketganimga qaramay tirik qolganimga hayratda qolib, sheriklariga zavq bilan aytib borardi.

– “Guliston” MFY dan o‘tgan Zarafshon daryosida oqib ketgan, taxminan 60 yoshlar oralig‘idagi fuqaro Zokir Majidov muvaffaqiyatli qutqarildi, – ratsiya orqali xursand ohangda hisobot berdi kimgadir. Uning qayta-qayta “tirik, ha tirik, yo‘q, ahvoli yaxshi” deyishidan tirikligimga hech kim ishonmayatganini his qilardim. Shu qadarki, hatto o‘zim ham omon qolganimga shubhalanayotgandim.

Qirg‘oqqa chiqqach qutqaruvchilar meni tez tibbiy yordam xodimlariga topshirdi. Shu kun qayta tug‘ilganday bo‘ldim rostini aytsam. Qutqaruvchilarga qarab “rahmat, bolalarim, rahmat” deyishga harakat qilaman-u gaplarim ko‘z yoshimga aralashib, bo‘g‘zimda yarim qolardi. Nihoyat kuch yig‘ib, yigitlarga rahmatimni yetkazdim.

– Bolalarim, hammangizdan minnatdorman, hayotimni asrab qoldinglar. Shu yoshimda bir o‘limdan qoldim. Bu yaxshiliklaringizni aslo unutmayman, sizlarni doim duo qilaman. – dedim ham sevinib, ham kuyinib. – Sizlar sabab bilib oldim, o‘tda yonmas, suvda cho‘kmas ekanman... – dedim-u kulib yubordim. Hammaning yuziga tabassum yugurdi.

Fuqaro **Zokir MAJIDOV** hikoyasi

Hikoyalarni
Yulduz O‘RMONOVA oqqa ko‘chirdi.

CHANG BO‘RONLARIDAN QANDAY SAQLANISH MUMKIN?



Chang bo‘roni nima?

Chang bo‘roni – kuchli shamol taqir va quruq tuproqdan ko‘p miqdordagi mineral changlarni (qum va boshqa tuproqning ustki qatlami materiallari) ko‘tarib, ularni yuzlab, minglab kilometrlargacha olib boradi. Odatda bunday bo‘ronlar qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlarda sodir bo‘ladi. Chang zarralarining havoda qolish muddati ularning hajmi va ob-havo sharoitlariga bog‘liq. Hajman yirik zarrachalar tezroq cho‘kadi, kichikroq zarrachalar esa yuqorida uchib yurishga ko‘proq moyil bo‘ladi. O‘rtacha hisobda, ular havoda bir necha soatdan 10 kundan ortiq muddatgacha saqlanib qoladi.

Sabablari

Bir qator uzviy bog‘liq bo‘lgan tabiiy va antropogen omillar natijasida chang bo‘ronlari yuzaga keladi. Tabiiy omillarga shamol tezligi, havo harorati, tuproq turi, o‘simliklar va relyef shakli kiradi. Global miqyosdagi chang chiqindilarining taxminan 25 foizi antropogen (inson faoliyati bilan bog'liq) omillar hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, o‘simliklarning nobud bo‘lishi, bioxilma-xillikning yo‘qolishi va tuproq yuzasiga ta’sir ko‘rsatishi bunday hududlarda chang hosil bo‘lishiga moyillikni oshiradi.

Ta’siri

Chang bo‘ronlari qit’alararo tarqalishi tufayli ham ijobiy, ham salbiy global oqibatlarga olib keladi. Masalan, chang o‘rmonlar va okean yuzasi suvlarini oziq moddalar bilan ta’minlash orqali Yerning biogeokimyoviy sikllarida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan bir qatorda chang issiqxona effekti bilan bir xil ta’sirga ega: u Yer atmosferasiga kirib kelayotgan quyosh radiatsiyasini o‘ziga singdiradi va tarqatadi, yer yuzasiga yetib keladigan miqdorni kamaytiradi va Yer sirtida aks ettirilgan uzun to‘lqinli nurlanishni o‘ziga singdiradi.

Havoning chang bilan ifloslanishi ko‘p insonlarning salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chang zarralari nafas yo‘llarini zararlaydi va bronxit, emfizema, yurak-qon tomir kasalliklari (masalan, insult), ko‘z infeksiyalari, terining zararlanishi va meningokokk meningit kabi kasalliklarni keltirib chiqarishi yoki chuqurlashtirishi mumkin. Diametri 10 mikrondan kichik bo‘lgan zarralar o‘pkaga chuqur kirib, u yerda joylashib oladi. Zarrachalarning muntazam ta’siri yurak-qon tomir va nafas olish tizimi kasalliklari, shuningdek, o‘pka saratoni rivojlanish xavfini oshiradi. Bundan tashqari, qum va chang bo‘ronlari ko‘rishning pasayishi va yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq o‘lim va jarohatlanishlarga olib kelishi mumkin.

Nima qilish kerak?

Eng avvalo, imkon qadar ko‘proq uyda qoling, deraza, eshik va shamollatish teshiklarini yoping, iloji bo‘lsa, konditsionerni va filtrli havo tozalagichni yoqing.

Agar tashqariga chiqishingiz zarur bo‘lsa, respirator niqob taqing (u yuzingizga mahkam o‘rnashib, juda kichik zarrachalar bilan nafas olishdan himoya qilishi kerak) va ko‘zingizni himoya qilish uchun ko‘zoynak taqing. Agar niqob bo‘lmasa, burun va og‘zingizni nam mato bilan yoping.

Agar xavfsiz bo‘lsa, keksa yoshdagi va boshqa nochor qo‘shnilardan, ahvoli yaxshi ekanligiga ishonch hosil qilish uchun xabar oling.

Xulosa qilib aytganda, chang bo‘ronlarining salbiy oqibatlarini kamaytirishda individual himoya choralariga amal qilish bilan birga atrof-muhitni, tuproq unumdorligini va bioxilma-xillikni asrash kabi tadbirlar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

CHEGARA TANLAMAS ofat

CHORVACHILIK QISHLOQ XO‘JALIGINING ENG YETAKCHI TARMOQLARIDAN BIRI HISOBLANIB, AHOLINI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI, SANOATNI ESA XOMASHYO BILAN TA’MINLASHDA MUHIM ROL O‘YNAYDI. BIROQ, CHORVA MOLLARI ORASIDA YUQUMLI KASALLIKLARNING TARQALISHI NAFAQAT IQTISODIY ZARAR KELTIRIB CHIQARADI, BALKI INSONLAR SALOMATLIGIGA HAM JIDDIY XAVF TUG‘DIRADI. SHU SABABLI, YUQUMLI KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARINI BILISH O‘TA MUHIMDIR.



Tabiiy ofatlar ichida katta talafot keltiradigan va aholini og‘ir tahlikaga soluvchi favqulodda holat bu suv toshqinidir. Toshqin – daryolar, soylar, dengizlar va ko‘llarda suv sathining keskin ko‘tarilishi oqibatida yuzaga kelib, yer yuzasining katta maydonlarini vaqtincha suv bosishiga aytiladi. Toshqinlar ko‘p hollarda kuchli jala, harorat ko‘tarilishi bilan qor va muzliklarning keskin erishi natijasida havzalardagi suv miqdorining ko‘payishidan paydo bo‘ladi.

Ushbu talafotning yana bir turi shamolning katta tezligi bilan bog‘liq bo‘lib, dengiz suvini qirg‘oqlarga yopirilib kelishidan ham yuzaga kelishi mumkin. Lekin, toshqinning bu turi mamlakatimiz hududlarida uchramaydi. Yana bir sababi esa ob-havoning keskin o‘zgarishi bilan me’yoridan ko‘p yog‘ingarchilik bo‘lishi aholi yashash joylariga ta’sir ko‘rsatadi. Bularning ichida eng kuchlisi halokatli toshqin bo‘lib, u uzoq yoqqan yomg‘ir oqibatida yuzaga keladi.

Bizning sharoitda toshqinlar bilan birga sellar doimiy kuzatiladi. Selli toshqinlar odatda qisqa vaqtda paydo bo‘lib, shitob bilan suv kelishi oqibatida suv inshoootlari atrofini, qirg‘oqlarni, ba’zan to‘g‘on va ko‘priklarni yuvib ketadi. Natijada o‘sha joydagi katta maydondagi ekinlar, muhandislik inshootlari sezilarli zarar ko‘radi.

Tabiiy ofatlar to‘satdan paydo bo‘lib, hayotimizga katta xavf solishi bilan birga ular chegara tanlamaydi. Respublikamizda sodir bo‘ladigan toshqinlarning yana bir xususiyati, ular qo‘shni davlatlarda paydo bo‘lib, butun talafotni bizning aholi va hududlarga yetkazadi. Chunki yurtimizning sharqiy va janubi-sharqiy hududlari baland tog‘lar bilan o‘ralgani uchun, suv tarmoqlarining boshlanish qismi qo‘shni davlatlarda bo‘lgan tog‘lardagi buloqlardan to‘planadi.

Aholini toshqindan muhofaza qilishning birinchi talabi daryo, soy o‘zanlari atrofini mustahkamlashdan iborat. Shuningdek, aholini o‘z vaqtida ogohlantirish, tushuntirish ishlarini olib borish ham kelgusida yuz beradigan holatni tez baholab, harakatni to‘g‘ri olib borishga yordam beradi.

Xo‘sh, toshqin vaqtida qanday muhofaza qoidalariga rioya qilish kerak?

– toshqin xavfi bor joylarda qurilish inshootlarini barpo qilmaslik;

– oziq-ovqat, ichimlik suvi, kiyim-kechak zaxiralariga ega bo‘lish;

– toshqin avj olayotgan bo‘lsa, atrofdagi tepalikka qarab yurish;

– uyni tark etayotganda suv, gaz, elektr tarmoqlarini xavfsiz holatga keltirish kerak.

Toshqindan so‘ng nima qilish kerak?

Uyga kirishga shoshilmaslik kerak, chunki toshqin oqibatida binoning bardoshliligi zaif bo‘lib qoladi va qulab ketish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Xonalarni diqqat bilan ko‘zdan kechirib, keyin eshik va derazalarni ochish lozim.

Suv bosgan joylar ortiqcha narsalardan xalos qilinib, quritish ishlari olib boriladi.

Mavjud asbob-uskunalardan, ayniqsa elektr qurilmalaridan foydalanishda nihoyatda ehtiyotkorlik talab etiladi. Chunki to‘liq qurimagan jihozlar boshqa ko‘ngilsiz holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shunday qilib, birorta xavf to‘g‘risida yetarli axborotga ega bo‘lingan taqdirdagina uning oldini olish yoki bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqilib, to‘g‘ri amalga oshiriladi. Buning uchun esa tabiiy ofatlarga loqayd bo‘lmasdan, o‘zimizni va atrofdagilarni to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatish har birimizning insoniylik vazifamizdir.

Sahifani **Rushana ZARPULLAYEVA** tayyorladi.

TASAVVUR QILING, UYINGIZDA BIR NASOS BOR. U BIR DAQIQAGA HAM TO‘XTAMAYDI. KECHASI HAM, KUNDUZI HAM ISHLAYDI, BAYRAMDA HAM, TA’TILDA HAM. AGAR U BIR NECHA SONIYAGA TO‘XTASA, BUTUN XONADON HAYOTI IZDAN CHIQADI. INSON TANASIDA HAM XUDDI SHUNDAY NASOS BOR. UNING NOMI – YURAK. U BIR SUTKADA TAXMINAN YUZ MING MARTA QISQARADI. QONNI MINGLAB KILOMETRGA TENG BO‘LGAN QON TOMIRLARI ORQALI HAYDAYDI. HAYOTIMIZNING HAR BIR SONIYASI UNING MEHNATIGA BOG‘LIQ.



YURAGINGIZ CHINDAN SOG‘LOMMI?

Yurak og‘rimasa, sog‘lom degani emas. Ko‘pchilik yurak kasalligi faqat og‘riq bilan boshlanadi, deb o‘ylaydi. Aslida esa yurak uzoq vaqt hech qanday og‘riqsiz ham zararlanib borishi mumkin. Qon bosimi yillar davomida baland yuradi. Qonda xolesterin oshib ketadi, quyuqlasha boradi. Qon tomirlarining devorlarida yog‘ qatlamlari yig‘iladi. Lekin odam o‘zini yaxshi his qilaveradi. Shuning uchun ham kardiologlar yurak kasalliklarini “eng xavfli jim kasallik” deb atashadi.

Biz yurakni qanday o‘ldiramiz? Bu savol og‘ir, ayni vaqtda qo‘pol eshitiladi. Axir o‘zimiz tirik bo‘la turib, yurak qanday o‘lishi mumkin? Ammo haqiqat shunday. Inson yuragini birdaniga emas, odatlari orqali sekin-asta charchatadi. Eng birinchi xato – uyquni qurbon qilish.

Bugun telefon, serial, ijtimoiy tarmoqlar tufayli millionlab odamlar yarim kechagacha uxlamaydi. “Yana besh daqiqa...”, “Ana shu videoni ko‘ray...”, “ Bu xabarlarga javob beraman...”, shu tariqa soat bir, ikki, hatto uch bo‘lib ketadi. Lekin inson uxlamayotgan paytda ham yurak ishlashda davom etadi. Organizmning ichki soati – biologik ritm buziladi. Kechasi ishlab chiqilishi lozim bo‘lgan gormonlar kamayadi. Qon bosimi tushishi kerak bo‘lgan vaqtda yuqoriligicha qoladi. Yurak esa dam olishi kerak bo‘lgan paytda ham yuqori yuklamada ishlaydi.

Kardiologlar yaxshi biladilar: muntazam uyqusizlik yuqori qon bosimi, yurak ishemik kasalligi va hatto infarkt xavfini oshiradi. Kattalar uchun har kuni o‘rtacha yetti-sakkiz soat sifatli uyqu yurak uchun eng arzon, eng kuchli va eng tabiiy dori hisoblanadi.

Qoningiz tobora quyuqlashayotganini bilasizmi? Odamlar ko‘pincha yurakni faqat mushak deb tasavvur qiladilar. Aslida yurakning eng og‘ir ishi – qonni haydash, tananing issiqligi shubhasiz yurakka bog‘liq. Agar qon me’yoriy suyuqlikda bo‘lsa, yurak qiynalmaydi. Ammo suv kam ichish, kam harakat qilish, chekish, semirish, ayrim kasalliklar yoki qandli diabet tufayli qon quyuqlashishi mumkin. Quyuq qonni haydash uchun yurak yanada kuchliroq ishlaydi. Bu esa uning charchashini tezlashtiradi. Shuningdek, quyuq qonda tromb hosil bo‘lish xavfi ortadi. Tromb



esa yurak yoki miya qon tomirini to‘sib qo‘yishi mumkin. Shu sababli shifokorlar suv ichishga, muntazam harakat qilishga va qon tahlillarini vaqtida topshirishga alohida ahamiyat berishadi.

JAHL VA ASABIYLIK – YURAKKA ZARAR

Har bir achchiqlanish yurakka juda kuchli zarba beradi. Eng qizig‘i shunda – yurakni faqat ovqat yo mehnat emas, hissiyotlar ham charchatadi. Kimdir sizga nohaqlik qildi, siz uni kechirmadingiz. Oradan bir yil o‘tdi, balki, o‘n yil ham. Lekin o‘sha alam hali ham yuragingizda. Siz uni eslaganingizda tanangiz yana stress gormonlarini ishlab chiqaradi. Qon bosimi ko‘tariladi. Yurak tezroq ura boshlaydi. Qon tomirlari torayib ketadi. Siz o‘tkinchi gaplarga bir o‘zingiz yuragingizni qurbon qilasiz. Boshqacha aytganda, siz xafa bo‘lgan odam buni allaqachon unutgan bo‘lishi mumkin. Ammo sizning yuragingiz hali ham o‘sha voqeaning jazosini tortayotgan bo‘ladi. Bunda xotira bilan, qo‘yib yubormaslik bilan, kechira olmay, o‘ch olishga payt poylash bilan siz yurakni azoblaysiz. Psixologlar bejizga “kechirish – avvalo o‘zingizni davolashdir” demaydilar. Kechirish nohaqlikni oqlash emas, bu o‘z yuragingizni ortiqcha azobdan qutqarishdir.

Hozirgi asrda odamlar taomsizlik, yetishmovchilikdan, irsiy kasalliklar, ko‘rgiliklardan emas, ko‘proq asabiylikdan azob chekmoqda. Ishdagi bosim, yo‘llardagi tirbandlik, oilaviy muammolar, qarzlar... Telefon tinmay jiringlaydi, miya esa bir daqiqa ham dam olmaydi. Stress bir kunlik bo‘lsa, organizm unga moslasha oladi. Ammo oylar va yillar davom etgan stress yurak uchun juda katta xavf hisoblanadi.

Organizm doimo “xavf” holatida yashaydi. Qonda stress gormonlari ko‘payib ketadi, qon bosimi yuqori yuradi, yurak tezroq ishlaydi, bu esa vaqt o‘tishi bilan uning zaxirasini kamaytiradi. Shuning uchun ham ba’zan insonni yoshi emas, balki tashvishlari qaritadi. Yurakning eng katta dushmanlaridan biri ham ana shu – tinmaydigan, chuqur anglanadigan iztirobdir.

Ortiqcha vazn – yurakka ko‘rinmas yuk. Odam tanasi ortiqcha har bir kilogramm vaznni ko‘tarib yuradi. Nazarimizda, bu yuk oyoqlarimizga og‘irlik olib kelayotgandek. Lekin bu yukni, eng avvalo, yurak his qiladi. Tasavvur qiling, shaharning bir chekkasidan ikkinchi chekkasiga suv haydaydigan nasosga yana bir nechta quvur ulab qo‘yildi. Endi u avvalgidan ancha ko‘proq ishlashiga to‘g‘ri keladi. Inson organizmida ham shunday. Vazn oshgan sari qon tomirlari ko‘paymaydi, ammo to‘qimalarga kislorod yetkazish uchun yurak ko‘proq qon haydashga majbur bo‘ladi. Ayniqsa, qorin atrofida to‘plangan yog‘ eng xavflisi hisoblanadi. U nafaqat tashqi ko‘rinishni o‘zgartiradi, balki qon bosimining ko‘tarilishiga, qandli diabetga, xolesterinning ortishiga va qon tomirlarining torayishiga sabab bo‘ladi. Bu omillarning barchasi oxir-oqibat yurakka borib taqaladi.

KAM HARAKATLIK YURAK DUSHMANI

Bugungi inson soatlab kompyuter qarshisida o‘tiradi, mashinada yuradi, liftda ko‘tariladi, uyga kelgach esa divanga cho‘kadi. Tanasi dam olayotgandek tuyuladi, aslida esa yurakning mashqi, shashti kamayib boradi. Yurak ham mushak. Mashq qilmagan mushak qanday zaiflashsa, yurak ham shunday holatga tushadi. Shifokorlar har kuni kamida o‘ttiz daqiqa tez yurishning o‘ziyoq yurak uchun katta salomatlik sovg‘asi ekanini ta’kidlaydilar. Buning uchun qimmat sport zali ham shart emas. Piyoda yurish, zinadan chiqish, bog‘da sayr qilish ham yurakni quvvatlantiradi.

Ba’zi belgilar borki, ularni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Yurak har doim og‘riq bilan signal bermaydi. Ba’zan zinadan chiqqaningizda nafas qisishi, oddiy ishdan keyin ham haddan tashqari charchash, yurakning betartib urishi, ko‘krakda bosim yoki og‘irlik hissi, yelka, bo‘yin, jag‘ yoki chap qo‘lga tarqaladigan noxushlik, karaxtlik sezgisi, oyoqlarning shishishi... Shularning barchasi yurak tekshiruvidan o‘tish uchun jiddiy sabab bo‘lishi mumkin.

Yurakni asraydigan o‘nta oddiy qoidaga keldik:

– Har kuni yetarli va sifatli uxlang.

– Ko‘proq piyoda yuring.

– Suvni yetarli miqdorda iching.

– Tuz va shakarni me’yoridan oshirmang.

– Sabzavot va mevalarni ko‘proq iste’mol qiling.

– Vazningizni nazorat qiling.

– Chekishdan voz kecching.

– Qon bosimi, qand va xolesterinni muntazam tekshirtirib turing.

– Jahl va arazni, o‘chni ichga yutib yurmang, kechirishni o‘rganing.

– Har kuni o‘zingizga kamida yarim soat xotirjam vaqt ajrating.

Yurak sizdan katta qahramonlik talab qilmaydi, u sizdan faqat yaxshi odatlarni xohlaydi.

Bir daqiqa ko‘zingizni yuming. Shu paytning o‘zida ham yuragingiz tinmay ishlayapti. U sizdan minnatdorchilik kutmaydi, dam olish kunini ham talab qilmaydi. Faqat bitta iltimosi bor: uni bee’tibor qoldirmang. Chunki yurak inson tanasida almashtirish eng qiyin a’zolardan biri. Uni sun’iy qurilmalar bilan ma’lum muddat qo‘llab-quvvatlash mumkin, ammo tabiat yaratgan sog‘lom yurakning o‘rnini hech narsa to‘liq bosolmaydi. Esda tuting: infarkt birdaniga boshlandi deb o‘ylaysiz-u, u bir kunda yuz bermaydi. Unga olib boradigan yo‘lni siz yillar davomida qurgan bo‘lasiz. Xuddi shu kabi, sog‘lom yurak ham bir kunda paydo bo‘lmaydi. U har kuni qilingan to‘g‘ri tanlovlar natijasida shakllanadi.

Bugun ertaroq uxlash, lift o‘rniga zinani tanlash, bir stakan suv ichish yoki kimnidir butunlay kechirish, miyani “kechagi gap”lardan tozalash kabi oddiy qarorlar ertangi yuragingiz uchun eng qimmatli sarmoyadir. Axir hayotimizda sevgan insonlar ko‘p. Ularning siz deb iztirob chekishini xohlamaymiz. Orzularimiz ham ko‘p. Ularga yetib borish uchun esa sog‘lom yurak kerak...

Guli IKROM qizi,
jurnalist



“Oq oltin”
Ertangi kunimiz
To‘rt-burchak muhr
Gollivud yulduzi ... Pitt
“Zar ...ini zargar bilar”
Qoraqal-pog‘iston markazi
Himoya, muhofaza
Soch pardozi
Institut rahbari
Xorij xonandasi ... Iglesias
Majlis hukmi
Savdo nuqtasi
Portret, foto
Guruch qurti
Tanlan-gan ...lar to‘plami (adabiyot)
Ko‘rik-tanlov
Kuchuk laqabi
Zahirid-din ... Bobur
“O‘z bur-chini ... etdi!”
To‘ng‘ich o‘g‘il
Tohir Sodiqov cholg‘usi
Zich, qalin
...gora, ...lufar
“Pul bo‘lsa ...da sho‘rva!”
Afsungar (sinonim)
Qovun-ning sherigi
Olmos og‘irligi o‘lchovi
Chili-dagi tog‘lar
Qiynalib, bazo‘r
Geo-metrik shakl
Mashhur modelyer Jorjio ...
Leonardo di ... (“Titanik”)
Spektakl qismi
Tufli toza-lagich
To‘yga aytish
“Chip ... Deyl” (m/f)
Tana, badan
100 yil
Shanba-lik (sinonim)
Vasko ... Gama (sayyoh)
Xorazm-cha sho‘x raqs
Nemis aka-uka ertak-chilar
Futbolchi Krishtianu ...
Suv tozalovchi kimyoviy modda
Xorun ...-Rashid (xalifa)
“Nasib qilsa-... yeymiz!”
Bayram oldi kun
Izquvar Erkyul ...
3x4 surat
Mansab, lavozim
Kosmik kema
Uxlata-digan ashula
“... so‘zi-aqlning ko‘zi”
Hikmatli gap
Hayotiy qiyin-chilik
To‘g‘ri-so‘z, odil
...rim, ...romat, ...mola
Ofis, tashkilot
O‘rama tort
Yuzdagi mayda hollar
Tropik chir-movuq
Hali ham, hanuz
Lavali yer qatlami
“Yo‘l azobi-... azobi!”
Ukraina parla-menti
Qat’iy qaror, va’da
“YALLA” kuylagan shahar
Zarur, darkor
“Rok-n-roll” qiroli Elvis ...
Tushun, bil
Nemis xonimi
Tagiga olgan taom
Erta-labki tamaddi
Chalkash, chigal
Chavan-dozlar sporti
Ma’noli so‘z birikmasi
Jurnal nusxasi, adad
Cho‘kib, mashhur bo‘lgan kema
Xorijlik xonanda ... Mehdi-zade
O‘sim-liklar dunyosi
Loxas, karaxt
Kutil-magan baxt
G‘alaba hayqi-rig‘i
Zo‘rdan zo‘r
Otola-ringolog vrach
“Sichqon-ning ... ming tanga!”
“... xolos, pishdi gilos!”
Sport balli
Iboli, hayoli
Buvining umr yo‘ldoshi
Zavq, rohat
Ekran-dagi yozuv
Chiroy, ko‘rk
Kimyoviy tajribalar uchun idish
Detektiv adiba ... Kristi
Qaymoq, qatiq, sariyog‘ manbai
Echkini bolasi
Bet, ...-angor
“... bermoq, jon bermoq!”
Dast-labki, birinchi
Peshona-dagi chiziqlar
Hammom bezak plitkasi
2016 yilgi Olimpiada shahri
“T” lotincha
Ichra, uzra
Mashq ishtoni
Ko‘payti-rishning aksi (matem.)
Istan-bullik

Tuzuvchi: **O.XUDOYQULOV**

Dunyoda sodir bo‘lgan ofatlar



Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy Jamiyatlari Federatsiyasi (XQXQYOJF) “Zararli axborot tarqalishi davrida ishonchlilik, ishonch va insonparvarlik faoliyat” mavzusida dasturiy hisobotini e’lon qildi. Mazkur Federatsiya 1919-yilda tashkil etilgan bo‘lib, tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlarga javob qaytarish bo‘yicha dunyodagi eng yirik tashkilot hisoblanadi. BMT tuzilmalari bilan yaqindan hamkorlik qiladi va 190 ta mamlakatdagi milliy jamiyatlarni birlashtiradi. Mamlakatimizda O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati faoliyat yuritadi.

Hisobot Michigan universitetida (AQSh) 60 ta davlat va yirik xalqaro tashkilotlarning yetakchi sohaviy ekspertlari hamda tahlilchilari ishtirokida tayyorlangan.

Tadqiqotning asosiy mazmuni shundan iboratki, qutqaruv va insonparvarlik operatsiyalar (tabiiy ofatlar, texnogen halokatlar, pandemiyalar va boshqa oqibatlarini tugatish) davomida tibbiy yordam, oziq-ovqat va boshpana bilan bir qatorda, aholini favqulodda vaziyat sharoitida keyingi harakatlar to‘g‘risida ishonchli axborot bilan ta’minlash ham eng muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, inqirozlar avj olgan davrda uchinchi shaxslar tomonidan subyektiv fikrlar, uydurmalar va muvofiqlashtirilgan targ‘ibot kampaniyalariga asoslangan zararli axborotlarning tarqatilishi destruktiv omilga aylanmoqda.

Bunday ishonchsiz va ko‘pincha manipulyativ kontent tez fursatda tarqalib, noto‘g‘ri talqin qilinadi. Bu esa tizimli tahdidlarning shakllanishiga olib keladi.

Birinchidan, aholi o‘rtasida qo‘rquv va noaniqlik muhitini yaratib, yuqori xavotir va vaqt tanqisligi sharoitida odamlarni chalg‘itadi.

Ikkinchidan, muammolarni hal qilish uchun birdamlik va jipslik zarur bo‘lgan bir vaqtda ijtimoiy adovatni qo‘zg‘atadi va jamiyatdagi parokandalikni kuchaytiradi.

Uchinchidan, inqirozga qarshi choralarga hamda tegishli institutlarning o‘z asosiy missiyasini – hayotni saqlash va ofat oqibatlarini kamaytirish vazifasini bajarish qobiliyatiga putur yetkazadi.

Tadqiqot mualliflari shunday xulosaga kelishadi: zararli axborotning kengayishi bugungi kunda global inqirozli fenomenga aylandi, u nafaqat tang vaziyatlarda barqarorlikni buzadi, balki xavfsizlikni ta’minlashning butun tizimini qadrsizlantiradi.

Shu bilan birga, xalqaro ekspertlar favqulodda vaziyatlar davrida axborot tahdidlarining halokatli kuchi quyidagi muhim omillar sababli yanada kuchayishiga e’tibor qaratmoqdalar.

Avvalo, zararli axborotning alohida xavfi shundaki, u asosan odamlarning real ovozlari hamda ommaviy idrokka yaqin, his-tuyg‘ularga boy xabarlar orqali tarqaladi va auditoriya tomonidan tez o‘zlashtiriladi. Bunday sharoitda rasmiy xabarlar har doim ham ular bilan raqobatlasha olmaydi va axborot maydonidan siqib chiqariladi.

Qolaversa, feyklarni (yolg‘on xabarlarni) tarqatish modellari muhim raqamli platformalar va aloqa kanallaridan foydalanish hisobiga mislsiz tezlik bilan ommalashadi.

Bundan tashqari, raqamli ustunlikka qaramay, dezinformatsiya shaxslararo muloqot mexanizmlari orqali oflayn makonga ham to‘siqsiz kirib boradi va virusli xarakterga ega bo‘ladi.

Ekspertlar tizimli ravishda ishonchni mustahkamlashni qarshi kurashishning asosiy vositasi deb belgilaydilar, chunki bu qutqaruv faoliyatini himoya qilishning eng ishonchli mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, mutaxassislarning ta’kidlashicha: ishonchni inqiroz avjiga chiqqan paytda tezkorlik bilan shakllantirib bo‘lmaydi. Uni barqaror davrlarda tizimli ravishda shakllantirish lozim.

Ishonchni mustahkamlash bo‘yicha harakatlar doirasida mutaxassislar quyidagi asosiy ustuvor yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatishadi va daxldor tuzilmalarga ularni amalga oshirishga diqqat qaratishni tavsiya etishadi:

1. Gumanitar faoliyatni tashqi aralashuvlar va zararli axborot kampaniyalaridan himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

2. Mish-mishlarni erta aniqlash uchun zararli narrativlarni monitoring qilish vositalariga, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarning doimiy monitoringiga investitsiya kiritish.

3. Yolg‘on ma’lumotlarni tezkor raddiya qilish tizimlarini takomillashtirish, jumladan, inqirozli vaziyatlarda mahalliy aholi vakillari bilan hamkorlikda tekshirilgan ma’lumotlarni tezkor tarqatish.

4. Tegishli tuzilmalar zararli axborot paydo bo‘lishiga qanday tayyorgarlik ko‘rishi va unga qanday munosabat bildirishi kerakligi bo‘yicha aniq yo‘riqnomaviy standartlarni ishlab chiqish.

5. Aholining ishonchini mustahkamlash choralarini inqirozli vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rish va inqirozlarga bevosita javob qaytarishning umumiy rejalariga doimiy ravishda kiritib borish.

6. To‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot, jumladan, ta’lim, diniy va jamoat muassasalarida muloqot qilish orqali ishonchni qo‘llab-quvvatlagan holda aholi bilan yanada yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, barqaror qayta aloqa tizimlarini yaratish.

7. Odamlarga murakkab axborot muhitida to‘g‘ri yo‘nalish olish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatish orqali aholining zararli axborotga nisbatan barqarorligini (daxlsizligini) doimiy ravishda mustahkamlash.

8. Joylarda aholi o‘rtasida ishonchga ega bo‘lgan yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar guruhlari, diniy arboblar, OAV va blogerlarni faol jalb etgan holda, jamoatchilik vakillariga ularning vositachilik rolini amalga oshirishda har tomonlama ko‘maklashish.

9. Qutqaruv tuzilmalari xodimlari va ko‘ngillilarning destruktiv narrativlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga xavfsiz javob qaytarish sohasidagi salohiyatini oshirish.

10. Milliy qadriyatlar va an’analarni hisobga olgan holda sohaviy tadqiqotlar o‘tkazish, shuningdek, boshqa davlatlar va ko‘p tomonlama formatlar ishtirokchilari bilan zararli axborotga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy muloqotni qo‘llab-quvvatlash.

Mazkur hisobot XQXQYOJF tomonidan Michigan universiteti ekspertlari ishtirokida tayyorlangan bo‘lib, unda inqiroz va favqulodda vaziyatlar davrida zararli hamda yolg‘on axborot tarqalishining insonparvarlik operatsiyalariga salbiy ta’siri tahlil qilingan.

Zafar TILAVOV,
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mutaxassisligi masofaviy magistratura bosqichi tinglovchisi

OGOHLIK TADBIRLARI

MAMLAKATIMIZ AHOLISI TINCHLIGI VA OSOYISHTALIGINI TA'MINLASH, ULARNI RO‘Y BERISHI EHTIMOLI BO‘LGAN TURLI KO‘NGILSIZ OFATLARDAN MUHOFAZA QILISH, GA QARATILGAN QATOR TADBIRLAR REJAGA ASOSAN OLIB BORILMOQDA.

Xususan, poytaxtimiz aholisi va mehmonlari xavfsizligini ta'minlash borasida Toshkent shahar FVBB huquqni muhofaza qilish idoralari, tibbiy xizmat, gaz ta'minoti, issiq suv, oqava suvlar va boshqa xizmatlar hamkorligida aholidan tushgan murojaatlar bo‘yicha ish olib bormoqda.

Bundan tashqari, aholi turar-joylari, savdo shoxobchalari, umumiy ovqatlanish joylari va bozorlarda, noqonuniy ravishda foydalanayotgan yoki sotilayotgan nostandart gaz uskunalari savdosini taqiqlash borasida tekshiruvlar o‘tkazilmoqda.

Shuningdek, yo‘l transport hodisalari bilan bog‘liq turli ko‘rinishdagi avariyalar ham kishini o‘ylantirmasdan qolmaydi.

Yong‘in bilan bog‘liq hodisalar xususida ham shunday deyish mumkin. Yong‘in xavfsizligi qoidalarini qo‘pol ravishda buzilishi oqibatida insonlarning halok bo‘lishi, tan jarohati olishi, kuyish va yonish hollari yuz berishi achinarlidir.

Shu boisdan, Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi tomonidan ko‘ngilsiz hodisalar oqibatida yuzaga kelgan falokatlarni aks ettiruvchi turli plakatlar, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatish, undan himoyalanish usullariga oid ko‘rgazmali tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Azamat SUYUNOV,
Toshkent shahar FVBB Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi katta o‘qituvchisi

Vaziyat
gazetasi
MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir:
podpolkovnik
Rustam ALIMOV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta tahririyat kompyuterxonasida sahifalandi.

Gazeta har haftaning payshanba kuni chiqadi. Topshirish vaqti – 15.00. Topshirildi – 15.00.

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Dilmurod DO‘ST
Navbatchi muharrir:
M.Tojimamatova
Musahhih:
B. Yunusova
Sahifalovchilar:
M. Hamroyev
B. Salohiddinov

Tahririyat manzili:
100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sh. Rashidov ko‘chasi, 17-uy.
@vaziyat_muhofaza

O‘zbekiston Respulikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2007-yil 3-yanvarda 0096-son bilan ro‘yxatga olingan.

Gazetadan olingan materiallar manbasi ko‘rsatilishi shart.

Gazeta “Sharq” NMAK bosmaxonasida bosildi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.
Buyurtma № G-849.
Bichimi: A3, hajmi: 4 b.t.
Adadi – 20338 nusxa.

ISSN 2091-5292

Gazetani elektron ko‘rinishda o‘qishingiz mumkin:

Indeks:
yakka obunachilar va tashkilotlar uchun – 382